

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

_____ dots. G'oziev S.
“ _____ ” _____ 2014 y.

5141500 - Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olishi uchun

MUSTAQILLIK YILLARIDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI
ETNOSIYOSIY - IJTIMOIIY ZIDDIYATLAR VA ULARNING
YECHIMLARI
mavzusida bajarilgan
BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

Bajaruvchi: I. Ergashev

Ilmiy rahbar: A.To'rayev_____

BMI Ijtimoiy fanlar kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (2014 yil____ may
____-sonli bayonnoma) himoyaga tavsiya etilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman

Kafedra mudiri: B.M.Ochilova

JIZZAX – 2014

Bitiruv malakaviy ishi Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida bajarilgan.

Taqrizchilar: Jizzax DPI, Umumiy tarix kafedrası mudiri
f.f.n. A.Amanlayev.

Jizzax shahar Huquqshunoslik kolleji o'quv i
shlari bo'yicha direktor o'rinbosari **O.Kazakov.**

Himoya 2014 yil ____ kuni, soat ____ da A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti Tarix fakul'tetida bakalavr darajasini olish uchun bitiruv malakaviy ishiları himoyasi bo'yucha davlat attestasiya komissiyasi hay'ati yug'ilishida o'tkaziladi.

BMI bilan Jizzax davlat pedagogika instituti kutubhonasida tanishish mumkin. (Manzil: Jizzax sh. Sh. Rashidov shoh ko'chasi, 54)

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-8
1-BOB. ETNOSIYOSIY – IJTIMOIIY JARAYONLARNI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. “Etnosiyosiy ziddiyatlar” tushunchasi, uning ijtimoiy taraqqiyot va millatlararo munosabatlarga ta’siri.....	9-20
1.2. Markaziy Osiyo mintaqaviy barqarorligini ta’minlashda etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlikning o’rni	20-31
1.3. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – etnosiyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida	31-41
2-BOB. MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ETNOSIYOSIY JARAYONLAR VA MILLATLARARO HAMKORLIK RIVOJI: YUTUQLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR	
2.1. Markaziy Osiyodagi millatlararo munosabatlarning etnohududiy va diniy jihatlari.....	42-53
2.2. Mintaqadagi milliy munosabatlar tizimida etnosiyosiy-ijtimoiy ziddiyatlar va ularning yechimlari.....	53-78
2.3. “Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag‘rikenglik” mavzusini o’qitishning texnologik modeli.....	78-91
XULOSA	92-96
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	97-100

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlarning rivoji mamlakatimizni demokratlashtirish, modernizatsiya va islohotlarni amalga oshirishda milliy totuvlik, hamjihatlik, hamkorlikning mustahkam hamda barqaror bo'lishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "...ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda".¹ Shu nuqtai-nazardan yondoshganda huquqiy demokratik jamiyat poydevori mustahkamlanayotgan bir sharoitda milliy-etnik jarayonlar ijobiy rivojini ta'minlashdagi ustuvor vazifalaridan biri barcha millat vakillarini milliy istiqolol g'oyasi atrofida birlashtirib, uning ijtimoiy - siyosiy jihatlarini o'rganish va tahlil etishni taqozo etadi. O'zbekistonning kelajak taraqqiyoti, maqsad va vazifalari mamlakat Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan milliy siyosatda aniq ifodalangan bo'lib, unda o'zlikni anglash va qurilayotgan huquqiy demokratik jamiyatda fuqarolarning etnoijtimoiy va madaniy rivojini ta'minlash etakchi mavqe kasb etadi. Shuningdek, respublikadagi milliy va ijtimoiy siyosat o'zaro hamkorlik va birdamlikka asoslanganligi quvonarlidir. Jamiyatda ro'y beradigan demokratik jarayonlar jamiyat rivojini ta'minlash bilan ijtimoiy taraqqiyotda vorislik dialektikasi ta'sirida yangicha mazmun hamda yangicha shakl kasb etib boradi. Milliy- etnik jarayonlarning optimal rivoji jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etar ekan, har qanday mavjud tizimdagi siyosat etnik barqarorlikning ta'minlanishi uchun yo'naltirilishi tabiiydir. Chunki, etnik barqarorlik siyosiy muvozanatning saqlanishida muhim o'rin tutsa, siyosiy barqarorlik esa iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy taraqqiyotning muhim kafolatidir. Mavjud konseptual g'oyadan kelib chiqqan holda tadqiqot mavzuining dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida sobiq totalitar tizim davridan farqli ravishda milliy-etnik konsepsiyalarga sinfiy-mafkuraviy nuqtai- nazardan emas, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olgan holda yondoshish, milliy o'zlikni anglash jarayonining o'sishi bois, har-bir millat va etnik guruhning o'z tarixini, madaniy hamda ma'naviy merosini o'rganib, ijobiy qirralaridan kelajak hayotda foydalanish milliy-etnik jarayonlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq;

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash sharoitida milliy-etnik jarayonlar rivojlanishining nazariy-metodologik jihatlarini bugungi kun realliklari asosida o'rganish, huquqiy-demokratik jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotining ijobiy rivojini ta'minlashdagi o'rni bilan aloqador;

Uchinchidan, milliy-etnik rivojlanish, elat va etnik guruhlarning tarkib topishi, ularning millat tarkibidagi o'rni hamda ijtimoiy hayotda tutgan mavqei muammolarini nazariy jihatdan yondoshgan holda tahlil etish, milliy mustaqillik sharoitida o'ziga xos ijobiy ahamiyat kasb etadi;

To'rtinchidan, milliy-etnik jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari hamda ularning milliy munosabatlar rivojida tutgan o'rnini belgilab, ushbu mavzuga xos muammolar echimining siyosiy-falsafiy tahlili, jamiyatda milliy-etnik barqarorlikning ta'minlanishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi;

Beshinchidan, bugungi taraqqiyot va globallashuv jarayonida jamiyatda etnik parchalanishdan hududiy yaxlitlikka, o'zaro umummadaniy qadriyatlarning sintezlashishi jarayonlari kechayotgan bir sharoitda insoniyat uchun davr vabosiga aylanib, etnik taraqqiyotga ham salbiy ta'sir etayotgan terrorizm, narkomafiya, diniy fundamentalizm hamda ekstremizm kabi oqimlarning naqadar fojiali ekanligining ilmiy tahlili hamda ushbu muammolarni echish yo'lidagi taklif va mulohazalar nazariy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda amaliy ahamiyatga ham egadir;

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Milliy-etnik jarayonlar, etnoijtimoiy masalalar jamiyat hayotidagi asosiy mavzulardan biri ekan, tabiiyki, ushbu mavzu

olim va tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazidir. Xususan mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan jamiyat a'zolari ongida milliy istiqlol mafkurasini shakllantirib rivojlantirish, milliy birlik, millatlararo totuvlik, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashda fuqaroviy mas'uliyat, mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan qator konseptual g'oyalar ilgari surildi.¹

XX-asrning to'qsoninchi yillaridan keying mintaqadagi muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli sobiq tuzum tarkibida bo'lgan respublikalarning milliy mustaqillikni qo'lga kiritishi hamda mana shu milliy istiqlol sharoitida Markaziy Osiyo respublikalaridagi siyosatchi, faylasuf va tarixchi olimlar tomonidan milliy ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash muammolariga bag'ishlab yozilgan asarlar, ilmiy va davriy nashrlardagi maqolalarni kiritish mumkin.²

Shu bilan bir qatorda, milliy mustaqillik sharoitida siyosiy fanlar doirasida milliy manfaat, ma'naviy tiklanish, millatlararo munosabatlar, milliy o'zlikni anglash, davlat siyosatida shaxs milliy o'zligini anglashi muammolari: jumladan, mustaqillik sharoitida shaxs milliy o'zligini anglashning ijtimoiy-siyosiy omillari, shaxs milliy o'zligini anglashining milliy munosabatlar tizimidagi o'rni, o'zbek xalqi milliy (etnik) o'z-o'zini anglashning shakllanishi muammolari va unga islomning ta'siri: jumladan, din, etnos va milliy psixologiyaning umum aloqadorligi, islom omilining milliy o'zlikka va ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga ta'siri, hozirgi sharoitda islom omilining milliy-o'z-o'zini anglashga ta'siri, o'tish

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: O'zbekiston, 1996; barcha tomlari.

² Azizxo'jaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. -T.: Sharq. 1997; Arifxanova Z.X. Etnoyazikovie protsessi v Uzbekistane. Mejnatsionalnie otnosheniya sovremennosti. -T., 1991; Ata-Mirzaev O., Gentshke V., Murtazaeva R., Uzbekistan mnogonatsionalniy: istoriko-demograficheskiy aspekt. T., Izd-vo med. Lit-ri im. Abu Ali ibn Sino. 1998; Atamuratov S. Natsionalnoe samosoznanie i internatsionalnoe vospitanie. -T.: O'zbekiston, 1991; Axmedov B.A. O'zbek ulusi. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992; Babaxodjaev M.A. Respublika Uzbekistan: Ocherki mejnatsionalnix i mejkonnatsionalnix otnosheniy, vneshneekonomicheskix svyazey. -T.: 1996; Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. -T.: Fan, 1994. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T.: O'qituvchi. 1994; Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. -T.: O'zbekiston, 1996. Jumaev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. -T.: Sharq, 1998; Jo'raev N. Yangilanishlar konsepsiyasi, yaratilish evolyusiyasi va amaliyoti. -T.: Ma'naviyat, 2002; Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... -T., Sharq. 1999; Iminov B.K. Manfaatlar-siyosat va mafkura manbai. T., Minhoj.

davrida olib borilayotgan yoshlar siyosati hamda ushbu siyosatning jamiyatni barqarorlashtirishdagi o'zni, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlash muammolari, jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlarning funksional tadqiqiga, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasi– millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili: jumladan, mafkuraviy va etnik jarayonlar rivojlanishi dialektikasi, mustaqillik sharoitida millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, Markaziy Osiyo mintaqasida etnosotsial munosabatlar: jumladan, Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi va yangi etnosotsial munosabatlarning shakllanishi, mintaqadagi etnosotsial munosabatlar va ularning echimlariga bag'ishlangan bir qator dissertatsiyalar ham himoya qilindiki, ular tadqiqotning nazariy-empirik bazasini mustahkamlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.¹

BMIning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatda etnosiyosiy va milliy-etnik jarayonlar rivojini tahlil etib, umumiy va uning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini bugungi kun realliklari hamda mavjud empirik ma'lumotlar asosida o'rganishdan, jamiyatda milliy-etnik barqarorlikni ta'minlash, mavjud barqarorlikni yanada mustahkamlash uchun qilingan tahlillarni izohlashdan boratdir.

BMIning vazifasi. Yuqorida ta'kidlagan maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Etnosiyosiy ziddiyatlarning ijtimoiy taraqqiyot va milliy xavfsizlikka ta'sirini izohlash;

¹ Atamuratov S. Natsionalnaya kultura i natsionalnoe samosoznanie v protsesse obnovleniya obshestva. Diss. na sois. uch. step. dokt. polit. nauk. T., 1992; Achildiev A.S. Milliy istiqlol g'oyasi – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun diss.-ya.T.,2004; Baxronov J. Mustaqil O'zbekiston davlati siyosatida shaxs milliy o'zligini anglashi muammolari. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun diss.-ya. T., 1997; Bekmuradov M.B. Rol obshestvennogo mneniya v sotsialno-kulturnom razvitii obshestva: Avtoref.dis...doktora sotsiologicheskix nauk.-T., 1997; Djumaev R.Z. Problemy formirovaniya i ukrepleniya politicheskoy sistemy Respubliki Uzbekistan: avtoreferat dis...doktora politicheskix nauk.-T., 1996; Juraev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodyojnoy politiki Respubliki Uzbekistan v perexodnoy period: teoriya i praktika. Diss. na sois. uch. step. dokt. polit. nauk. T., 1994; Po'latov A. Markaziy Osiyoda etnosotsial munosabatlar: nazariyasi, muammolari, echimlari. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun diss.-ya. -T., 2003.

- Mustaqillik sharoitida Markaziy Osiyoda etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlikni tahlil etish;
- Millatlararo munosabatlarning etno-hududiy va diniy jihatlarini tahlil qilish;
- Milliy munosabatlar tizimida etnosiyosiy va ijtimoiy muammolar:bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish;
- Mintaqada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka intilish harakatining kuchayib borayotganligi o‘z navbatida mintaqa xalqlarining o‘zaro etnik hamjihatligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish;

BMIning ob‘yekti va predmeti. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi etnosiyosiy jarayonlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, millatlararo totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan mintaqa davlatlarining hamkorlik siyosati, millatlararo munosabatlarning etnosiyosiy va etnohududiy jihatleri BMIning obyekti va predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodlari: analiz, sintez, deduksiya, induksiya, analogiya, umumlashtirish, tarixiylik, mantiqiylik va fikriy modellashtirish.

BMI ning tuzilishi. Kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 100 bet.

I-BOB. ETNOSIYOSIY-IJTIMOIIY JARAYONLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. "Etnosiyosiy ziddiyatlar" tushunchasi, uning ijtimoiy taraqqiyot va millatlararo munosabatlarga ta'siri

Insoniyat uchinchi ming yillik arafasida ko'plab etnik va diniy ziddiyatlar, qurol-aslahalarning nazoratsiz taqsimlanishi, jahon bo'ylab narkotik moddalarning oboroti, turfa epidemiyalarning tarqalishi, qochoqlar migratsiyasi hamda ekologik xavfning mavjudligi yangi konfliktogen nuqtalarning, shuningdek, ekstremizm va terrorizmning vujudga kelib, insoniyat taraqqiyotiga zid bo'lgan ayanchli qilmishlarni sodir etayotganliklarining guvohi bo'lib turibdi.

Bugungi kunda milliy masaladagi ijobiy qarashlar barcha taraqqiyparvar davlatlar va milliy taraqqiyotni ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi deb hisoblovchi siyosiy etakchilar faoliyatida mustahkam o'rin olib, ustuvor yo'nalish sifatida milliy totuvlikni ta'minlashda nazariy hamda siyosiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri millatlar va fuqarolararo totuvlikni ta'minlashdan iborat ekanligi haqidagi konseptual g'oyalari etnik va fuqaroviy hamjihatlik ijtimoiy siyosatdagi asosiy masalalardan biri sifatida e'tirof etilganligini tasdiqlaydi.

Mintaqadagi milliy-etnik masalada yuqorida ta'kidlangan metodologik asoslar millatlararo munosabatlar rivoji va ijtimoiy taraqqiyot uchun siyosiy hamda huquqiy kafolatdir. Ma'lumki, milliy-etnik jarayonlarning ijobiy rivoji:

1. Har qanday jamiyatda barqaror taraqqiyotni kafolatlab, barcha millat va etnik guruh vakillarining umumiy maqsad sari intilishini ta'minlaydi;
2. Ijtimoiy hayotdagi etnik barqarorlik milliy munosabatlarning optimal rivojida muhim ahamiyat kasb etadi;
3. Polietnik davlatlardagi milliy hamjihatlik jamiyatda sog'lom siyosiy muhitni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda oqilona milliy siyosat jamiyatdagi etnik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Asrlar mobaynida siyosiy konfliktlar, ularni oldini olish yoki ularning yechimini topish muammolari doimiy ravishda insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat, tarix sahifasining 1989 yildan 2000 yilgacha bo'lgan qisqa davri davomida 74 ta hududda 111 qurolli konfliktlar ro'y berdi.¹ Mazkur bo'lib o'tgan konfliktlar sababli ayni vaqtda dunyoda 18 million kishi qochoqlar sifatida, 24 million kishi esa majburiy ravishda ko'chib yuruvchi shaxslar sifatida hayot kechirmoqdalar.² Eng asosiysi, qanchadan-qancha begunoh insonlarning qoni to'qilmoqda. Bularning barchasining zahirida o'z vaqtida e'tirof etilmagan yoki vaqtida o'z intihosini topmagan siyosiy konfliktlar yotganligi sir emas.

Agar yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlarni e'tiborga olsak, siyosiy konfliktlarni o'rganish bugungi kunga kelib beshta sabablarga ko'ra muhim hisoblanadi: 1) konfliktlar keng qamrovli, ya'ni birgina kichik siyosiy konflikt tufayli mazkur konflikt ro'y berayotgan mamlakatda siyosiy tartibsizliklar, ekologiya yomonlashuvi, iqtisodning izdan chiqishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin; 2) ular katta miqyosda jabrlanishlarga sabab bo'ladi; 3) ular juda ko'p hollarda bir mamlakat doirasidan chiqib, qo'shni davlatlarni ham o'z domiga tortadi; 4) turli kuchlar hamda xalqaro tashkilotlarning manfaatlarini to'qnashuviga sabab bo'lishi mumkin; 5) xalqaro hamjamiyat konfliktlar bilan ishlash borasida o'z imkoniyatlarini qayta baholab chiqmoqda.

Qanchalar achinarli bo'lmasin, ayni vaqtga qadar konfliktlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqidagi fikrlar turlicha. Ko'pchilik siyosatdonlar va jurnalistlar fikrlariga ko'ra, konfliktlarning sabablari juda oddiy va barcha konfliktlar zahirida ko'pchilik etnik va yoki diniy guruhlarining bir-biriga nisbatan «tarixiy nafrati» yotadi degan fikr mavjud. Bunga ancha-muncha misollar ham keltiriladi. Xususan, Sharqiy Evropa va sobiq Ittifoq kabi qator mintaqalarda avtoritar rejim hukm so'rgan. Bora-bora mazkur rejimlarning to'ntarilishi yoki almashinishi o'sha mavjud bo'lgan «tarixiy nafratni» aniq tarzda ochib yubordi va

¹ SIPRI Yearbook.Stockholm-2001.

² <http://www.euroconflict.org/guides/pp/htm>

buning natijasida ayni rejim ostida yashab kelgan qator mamlakatlarda qurolli konfliktlar vujudga keldi.

Biroq qator olimlar bu kabi tushuntirishlarni qabul qila olmaydilar. Sababi, bu kabi oddiy tushuntirish “nima uchun konfliktlar ma’lum bir davlatlarda ro’y berdi-yu, boshqalarida yo’q?”, yoki “nima uchun ba’zi konfliktlarni hal etish oson kechmoqda-yu, ba’zilarini esa yo’q?” rusumidagi savollarga javob bera olmaydi.¹ Darhaqiqat, nima uchun XX asrning 90 yillarini boshida Chexlar va Slovklar o’rtasida konflikt vujudga kelmadi? Yoki nima uchun fransuz tilida va ingliz tilida so’zlashuvchi kanadaliklar o’rtasida konfliktlar vujudga kelmadi? Bunga o’xshash misollarni ham ko’plab keltirish mumkin. Bu savollarga javobni qidirar ekan, Garvard universiteti qoshidagi Jon Kennedi nomidagi hukumat maktabi «Fan va xalqaro munosabatlar» markazi xodimi, Maykl Broun to’rtta asosiy omillar majmuasini ajratib ko’rsatadi. Uning fikriga ko’ra bu omillar nima uchun ba’zi joylar-davlatlar boshqa joylarga qaraganda konfliktlarga ko’proq moyildir degan savolga javob bera oladi. Bular : a) strukturaviy omillar; b) siyosiy omillar; g) iqtisodiy-ijtimoiy omillar; d) madaniy-idrok etish bilan bog’liq bo’lgan omillardir.

Siyosiy konflikt – davlat, ijtimoiy va etnik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ma’lum shaxslarning siyosiy manfaatlari, maqsadlari va qarashlarining to’qnashuvidan iboratdir.

Siyosiy konfliktlarda asosiy muammo hokimiyat taqsimotidan iboratdir. Shu sababli, siyosiy konfliktlar zahirida jamiyatda hokimiyatni yuritish bilan bog’liq bo’lgan siyosiy manfaatlarning to’qnashuvi yotadi. Bu ko’rinishdagi konfliktlarning xarakterli jihatlarilaridan biri bu siyosiy tizimning normal faoliyat ko’rsatishini buzilishi, turli ijtimoiy institutlar, xususan davlat va siyosiy partiyalar, o’rtasida raqobatning nihoyatda avj olib ketishidir. Mazkur jarayonda konflikt tomonlari o’z manfaatlari butun jamiyatning yoki uning katta qismining manfaatlari bilan tenglashtirib, qolaversa birlashtirib ko’rsatishga harakat qiladi.

Siyosiy konfliktlar o’rganilar ekan etnik konfliktlarga to’xtab o’tmaslikning iloji yo’q. Etno-ijtimoiy (yoki millatlararo) konfliktlar echimini topish yoki

¹ Brown M. The International dimension of Internal Conflict. Mir Press. Cambridge, Massachusetts, 1996. - P. 13

to'xtatish qiyin bo'lgan konfliktlardan biri hisoblanadi. Nima uchun siyosiy konfliktlar qatorida millatlararo konfliktlar ko'rib chiqilmoqda degan o'rinli savol tug'ulishi tabiiy. Sababi, mazkur ikki konfliktlar uzluksiz bog'liqdir. Ya'ni, noto'g'ri olib borilgan milliy siyosat millatlararo yoki etnik konfliktlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, buning aksi sifatida, o'z vaqtida bartaraf etilmagan kichik bir etnik asosga ega bo'lgan qarama-qarshilik bora-bora siyosiy konfliktlar darajasiga ko'rilishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy, siyosiy va milliy konfliktlar o'rtasida aniq bir chegara mavjud emas.

Etnik konfliktlar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. U oddiy bir-birini ko'ra olmaslikdan va mahalliy darajadagi kamsitishlardan tortib ommaviy to's-to'polonlar, harbiy to'qnashuvlar, milliy ozodlik uchun kurashlarga ham aylanib ketishi mumkin. Xuddi shunga o'xshash hodisalar Tog'li Qorabog', Moldaviya, Sobiq SSSRning inqirozidan so'ng Gurjistonda ham ro'y bergan edi.

Siyosiy konfliktlar har qanday jamiyatda ma'lum funksiyalarni bajaradi. Ular jamiyatda hattoki vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan kuchlar muvozanatini shakllantiradi. Shuningdek, siyosiy konflikt qarama-qarshi fikrlarni to'liqligicha ochiq darajaga olib chiqishi, ijtimoiy qadriyatlar va mezonlarni qayta baholanishiga, hamda kuchlar muvozanatini buzib, jamiyatni notinchlik sari turtib yuborishi mumkin. Mazkur omillarni e'tiborga olgan holda demokratik jamiyatlarda mavjud konfliktlarni buzuvchi xarakterga ega bo'lgan yo'nalishga tushib qolmasligiga katta e'tibor qaratmoq muhim.

Hozir dunyoda mingdan ortiq etnoslar mavjud bo'lib, ularda taxminan 270 tasini tarkibida 1 mln. dan ortiq kishi mavjud Rossiyada 100 dan ortiq etnoslar yashaydi. AQSH da undan ham ko'p. Garvard ensiklopediyasida Amerikadagi etnoslar ro'yxati 106 ta deb berilgan, ammo unda 170 xind qabilalari bir guruhga kiritilgan, Yaqin Sharqdan chiqqanlar (suriyalik, misrlik, iordaniya, palastin va h.k.) "arablar" deb ko'rsatilgan. Albatta bunda aholini etnik tarkibini aniqlash soddalashtirilgan.

Dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar ko'p millatli, bu turli harakterdagi millatlararo munosabatlarni yuzaga kelishi uchun ob'ektiv asos hisoblanadi. Chunki har qanday millat va elat o'ziga xos qiziqishlari, ehtiyojlari xattoki o'zining ehtirosli taraqqiyotiga ega. Shuningdek, hozirgi davrdagi millat va elatlar ko'p sonli, oz sonli, kuchli, ojiz, hukmron – tobe, qadimgi, yosh, rivojlangan, taraqqiyot jihatdan orqada qolgan, o'z davlatchiligiga ega va unga ega bo'ladigan ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi bunday farq va ijtimoiy holati etnoslarning millatlararo munosabatlarda keskin siyosiy muammolarni keltirib chiqardi. Uning asosiy elementi – bu tenglik yoki tobelik, muammosi iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasidagi tengsizlik muammosi, millat nizo va adovat. Bunday har bir muammoni hal etish o'ta murakkab siyosiy jarayon hisoblanadi.

So'ngi asrlar davomida ayniqsa XX asrda milliy munosabatlar tobora siyosiy lashib bordi. Bu davlatning millatni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi rolini oshib borish bilan izohlanadi. Ular ichida millatlarni o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy va internatsional manfaatlarni hisobga olish, milliy madaniyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, milliy madaniyat vakolatxonalarini ochish, ularni kadrlar bilan ta'minlash va boshqalarda hokimiyat tuzilmalarining faoliyati kuchaydi.

Sobiq sovet hududida yangi mustaqil davlatlarning milliy shakllanishi davrida millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish yanada katta ahamiyat kasb etadi. Davlatlarning polietnik tipiga mansub bo'lgan O'zbekiston uchun milliy munosabatlar ayniqsa dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi, chunki respublikada asosiy millat - o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyatiga va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Ularning mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi taxminan 20 foizga teng¹. Millatlararo totuvlik — mamlakatimiz siyosatining ustuvor jihatlaridan biri hisoblanib, muayyan hudud,

^{1 1} Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.- 78-79-b.

davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifoda etadi.

O'zbekiston aholisining ko'p millatli ekanligi, o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashining kuchayishi va ma'naviy tiklanishi bilan chambarchas bog'liq holda, jamiyatning yangilanishi, uning demokratlashuvi uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Davlat qurilishining o'zbek modeli hududimizda tarixan tarkib topgan ko'p millatli jamiyat tuzilmasini saqlab qolish va mustahkamlash hamda mazkur omildan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat pirovard maqsadlarimizni amalga oshirishda foydalanish g'oyasiga asoslanadi.

Bugungi kunda Yer yuzida mavjud bo'lgan 200 dan ortiq davlatlarning aksariyati ko'p millatli (polietnik) tarkibga egadir. Ko'p millatlilik O'zbekistonga ham xosdir. Ma'lumotlarga ko'ra, 1897 yilda hozirgi respublikamiz hududida 70 millat va elat vakillari istiqomat qilgan bo'lsa, 1926 yilda ularning soni 91 taga, 1959 yilda 113 taga, 1979 yilda 123 taga, 1989 yilda 136 taga etgan.

2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi milliy tarkibida o'zbeklar 20804,0 ming (80,0%), boshqa millatlar vakillari 5202,8 ming (20,0%) kishini tashkil etmoqda. Xususan, qoraqalpoqlar 562,8 ming (2,2%), tojiklar 1302,8 ming (5,0%), ruslar 970,0 ming (3,8%), qozoqlar 939,5 ming (3,6%), tatarlar 250,6 ming (0,9%), qirg'izlar 241,5 ming (0,9%), turkmanlar 157,8 ming (0,6%), koreyslar 155,9 (0,6%) ming kishini tashkil etadi. Qayd etilgan holat milliy siyosatimizning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi ayrim jihatlarni tushunish imkonini beradi.

Birinchidan, o'zbeklar aholi tarkibida mutlaq ustuvor mavqega ega. Bu esa, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalari titul millat bo'lgan o'zbeklar uchun alohida mas'uliyat yuklaydi.

Ikkinchidan, respublika aholisi tarkibida umumiy miqdori 2,5 mln.kishi (yoki 10%) dan oshadigan tojik, qozoq, qirg'iz va turkman xalqlari o'rtasidagi

munosabatlar ham millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarga o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

Millatlararo munosabatlarni takomillashtirish deganda: birinchidan, yaqin o'tmishda olib borilgan siyosat natijasi o'laroq yuzaga kelgan negativ holatlarga barham berish, ikkinchidan yuzaga keladigan muammolarni oqilona hal qilish, uchinchidan, millatlararo munosabatlarda keskinlikni keltirib chiqaradigan g'oyaviy tahdidlar va ularni salbiy ta'sirining oldini olish, to'rtinchidan, uning o'zaro hurmat, hamkorlikka asoslangan bugungi holatini yanada mustahkamlash, yangi sifatiy bosqichga ko'tarish nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda yuqorida ta'kidlangan barcha yo'nalishlarda jiddiy va keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini ta'kidlash lozim.

Asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan yurtimizda dunyoning turli burchaklaridan kelgan kishilar o'zaro muloqotda bo'lganlar. Xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik, mehr-oqibat, xayrixohlik fazilatlarini ildizi ham ana shu jarayonlarda. SHuning uchun ham Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimiz rahbari Islom Karimov boshchiligidan ishlab chiqilgan ichki siyosatda millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shu zaminda yashayotgan barcha xalqlar vakillari o'rtasida do'stlik va qardoshlik tuyg'ularini mustahkamlash alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar vakillarining mamlakat madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va davlat tizimida ishtirok etishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Mazkur tamoyillar Konstitutsiyada ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 4-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». 8 va 18-moddalarda shunday deyiladi: "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy-nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi". "Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun

oldida tengdirlar». Mazkur talablar mamlakatimizda qat'iyat bilan amalga oshirilmoqda.

Milliy munosabatlar milliy etnik rivojlanish subyektlari: millatlar — elatlar, etnik guruhlar va ularning davlat birlashmalari — o'rtasidagi munosabatlardir.

Bu munosabatlar uch turli bo'ladi:

- teng huquqli;
- hukmronlik va tobelik munosabatlari;
- boshqa sub'ektlarni yo'q qilishga urinishlar.

Milliy munosabatlarda ijtimoiy munosabatlarning butun yig'indisi o'z aksini topadi. Ularga iqtisodiy va siyosiy omillar belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Bunda siyosiy jihatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu hol, eng avvalo, davlatning, millatning shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyati, milliy va ijtimoiy aloqalarning ichki munosabati bilan taqozo etilgan.

Milliy munosabatlarning o'z milliy taqdirini o'zi belgilash, milliy va baynalminal manfaatlarning birga qo'shilishi, millatlarning teng huquqli, milliy tillar va milliy madaniyatlarning erkin rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishi, milliy kadrlarni tayyorlash va ularning hokimiyat tuzilmalaridagi vakolati singari masalalari va bir qator boshqa masalalari bevosita siyosat sohasiga tegishlidir. Shu bilan birga siyosiy aqidalar, siyosiy xulq-atvor, siyosiy madaniyatning shakllanishiga tarixan tarkib topuvchi an'analar, ijtimoiy his-tuyg'u va kayfiyatlar, geografik sharoit, millatlar va elatlar hayotining madaniy-maishiy sharoitlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Milliy munosabatlarning eng asosiy masalasi - teng huquqlilik yoki tobelik masalasi, millatlarning ylug' davlatchilik va ezilgan millatlarga bo'linishi; madaniy va iqtisodiy rivojlanish darajasining teng emasligi haqidagi masala; milliy ayirmachilik va milliy zaminda yuzaga keluvchi dushmanlik, o'zaro shubhalanish masalasi.

Milliy munosabatlarning rivojlanishi odatda millatchilik va shovinizm singari hodisalar bilan birga kechadi. Millatchilik - mafkura va siyosat bo'lib, uning asosida milliy mustaqillik va ustunlik g'oyasi, boshqa xalqlar vakillariga

bepisandlik bilan qarash yotadi. Shovinizm - o'ta urishqoq millatchilik bo'lib, bir millatning boshqasiga, odatda kichik millatning katta millatga bo'ysunishini bildiradi.

Bu qarama-qarshiliklarning barchasi u yoki bu milliy siyosatni o'tkazish davomida hal qilinishi yoki aksincha kuchayib ketishi va nizolarga aylanishi mumkin. Fan nuqtai-nazaridan, milliy siyosat - ularning sonidan qat'iy-nazar, xalqlarning milliy hayotini yanada rivojlantirish va yangilashga hamma xalqlar o'rtasida teng huquqli va ko'p tomonlama munosabatlar o'rnatishga, markaziy hokimiyat bilan millatlar o'rtasidagi muloqotning demokratiya; mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan tadbirlar tizimi. Milliy siyosatga uning shakllanishi va davlat hokimiyatining barcha organlarida amalga oshirilishining turli darajalarida hisobga olinishi lozim bo'lgan muayyan siyosiy qadriyatlar (tamoyillar) xos.

Har bir fuqaro o'zida o'zining va o'zgalarning milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashni shakllantirgan holdagina milliy munosabatlardagi keskinlik yo'q bo'lishi mumkin.

Milliy siyosatning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Milliylik va baynalminallikning birga qshlishi;
- Mahalliy manfaatlar va davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unligi;
- Tenglik va adolat me'yorlariga rioya qilinishi;
- Milliy muammolarning imkoniyatlarni g'isobga olgan holda hal etilishi;
- Irqchilik, millatchilik, shovinizm, milliy nigilizmning rad etilishi;
- Fuqarolarning vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalanishi;
- Fuqarolarning irqi va millatidan qat'iy nazar o'zaro tengligi;
- Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi

Mazkur tamoyillarni hisobga olgan holda shakllantirilgan milliy siyosat millatlar va elatlarni jipslashtirishga, yuzaga kelgan nizolarga barham berishga qodir bo'ladi.

Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakillari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Bu masala mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida, "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deb ta'kidlanishi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqining berilishi belgilab qo'yilganligi ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

"O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi". Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan ushbu qoida ham hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Respublikamizda milliy madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmiga aylangan 140 ga yaqin milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning dalilidir. Bundan buyon ham qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy istiqlool mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojiga ijobiy ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida Milliy madaniy markazlar jamiyatning etnosiyosiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, bu erda 136 millat vakillari yashashi bois, mustaqillik yillarida etnik o'ziga xoslikka asoslangan turli

Milliy madaniy markazlar tuzilgan va hozirgi kunda bu markazlar samarali faoliyat ko'rsatayotganligi quvonarli holdir. Hozirgi kunda respublikada o'ndan ortiq millat vakillarining 140 ga yaqin Madaniy markazlari faoliyat olib bormoqda. Birgina koreys millati vakillarining 28ta Madaniy markazi faoliyat olib bormoqdaki, bu O'zbekistonning, o'zbek xalqining respublikada yashovchi barcha millat vakillari taqdiriga befarq emasligidan dalolatdir. Bular O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillarining o'z milliy madaniyati hamda tarixiy qadriyatlarini tiklashga oid ehtiyojlarini har tomonlama qondirmoqda.

Etnosiyosiy jarayonlar rivoji muayyan taraqqiyot bosqichlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy tuzilishiga o'ziga xos tarzda ta'sir etib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining rivojiga xizmat qilsa, bunda u progressiv mazmun kasb etadi. Agar etnik jarayonlar jamiyatda boshboshdoqlikka sabab bo'lib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojiga to'sqinlik qilsa, ushbu holatda u salbiy mohiyat kasb etgan bo'ladi. Shu jihatdan ham jamiyatda milliy-etnik jarayonlarni muvofiqlashtirib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivoji uchun safarbar etish muhimdir.

Xulosa qilganda, etnosiyosiy jarayonlarning barqarorligi, etnik guruhlar orasidagi o'zaro bog'liqlik hamda dialektik yaxlitlik natijasidir. Ushbu jarayonning davomiyligi ijtimoiy sub'ekt va jamiyat a'zolarining ushbu yaxlitlik mezoniga asoslanadigan milliy va davlatlararo hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning rivojiga xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish jarayonida etnik guruhlar orasida nisbiy beqarorlik ko'zga tashlanadi. Elat vakillari tafakkurida eskicha dunyoqarashning yangicha dunyoqarash bilan almashish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ijobiy yoki aksincha salbiy yakuni o'tish davrida jamiyatning ma'naviy va siyosiy salohiyatiga bog'liq.

Har qanday demokratik jamiyatning siyosiy istiqboli jamiyatda umuminsoniy, milliy va etnik manfaatlarning uyg'unlashuvi jamiyatda mavjud bo'lgan milliy-etnik muammolarning ijobiy, oqilona echimiga hamda jamiyat taraqqiyoti uchun tanlangan yo'l, amalga oshirilajak iqtisodiy islohotlar, mavjud

ijtimoiy muammolar echimida qo‘llanilayotgan metod va usullarga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi

1.2. Markaziy Osiyo mintaqaviy barqarorligini ta‘minlashda etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlikning o‘rni

Milliy mustaqillik Markaziy Osiyo xalqlariga yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Mintaqadagi mustaqil davlatlar jahonning nufuzli tashkilotlari tomonidan teng huquqli sub’yekt sifatida e‘tirof etilib, xalqaro hamjamiyatning diqqat e‘tiborini torta boshlashdi. Bunday e‘tirof mintaqadagi yangi mustaqil davlatlarga ulkan ishonch bilan bir qatorda buyuk mas‘uliyat ham yukladi. Ana shu buyuk mas‘uliyatni zimmamizga olib, mintaqada millatlararo hamjihatlik rivojiga hissa qo‘shish barchamizning vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta‘biri bilan aytganda:“Yurtimizda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, tili, dini, millatidan qat’i nazar, shu zamindagi barcha insonlarning o‘zaro mehr-oqibatli bo‘lib yashashi... uchun barchamiz hissa qo‘shishimiz kerak”.¹

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa, har jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat beradiki, alohida olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko‘ra bunday mojaro nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi qo‘shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan bir qatorda muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora tarzda kengayish tanglikni yanada chuqurlashtiradi. Chunki tanglik chiqqan hududda o‘z manfaatlarini ta‘minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

¹ Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq // Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. Toshkent, 2004. 274-bet.

Xo'sh mintaqaviy mojarolarni keltirib chiqaradigan sotsial, diniy, etnik muammolar qaysilar?

1. Bir tizimdan boshqa tizimga o'tgan yosh mamlakatlarda mavjud bo'ladigan ijtimoiy muammolar: o'tish davridagi islohotlarning qiyinchiliklari, aholining ob'ektiv tabaqalashuv jarayoni va mulkdorlik belgisi bo'yicha tabiiy tafovutlar bo'lsa.

2. Mintaqadagi davlatlarning mustaqilligini qaror toptirish va mustahkamlash davrida islom omili va uning xilma-xil ko'rinishlari faollashuvi, ayniqsa, din shu jumladan islom dini asoslariga qarama-qarshi diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisa – jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarib, barqarorlik va xavfsizlikka taxdid solmoqda.

3. Etnik va millatlararo munosabatlar polietnik davlatlar xavfsizligining muhim omili ekanligi.

Jahon tajribasi polietnik davlatlar xavfsizligida va taraqqiyotida millatlararo munosabatlarning ijobiy va salbiy rol o'ynaganini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda ko'p elatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirishda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda, fuqarolik jamiyatini qurishda ijobiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayrim mamlakatlarda esa ko'p elatchilik omili mamlakatni orqaga uloqtirib tashlagan, ijtimoiy-siyosiy falokatlarni keltirib chiqargan. Ko'p elatlilik xatto butun-butun mamlakatning tinchligi, barqarorligiga putur etkazgan.

Markaziy Osiyo mintaqisida millatlararo munosabatlarga bo'layotgan xavfning ildizlari hali tugatilgan emas.

- Tashqi migratsiya jarayonlari barqarorlashgan bo'lsada, u bilan bog'liq dalillar buzib talqin qilinmoqda;

- Respublika xukumati tomonidan olib borilayotgan ishlar noxolis baholangan holda, Orolbo'yi muammosiga, milliy tus berishga harakat qilinmoqda;

- O'zbekistonning go'yoki qo'shni davlatlarga hududiy da'volari mavjudligi haqida gapirilmoqda;

- Milliy g'oya masalasi faqat o'zbeklarning g'oyasi sifatida talqin etilmoqda;

- Go'yoki, milliy tillarda axborot maydonining qisqarib borayotgani haqida gapirilmoqda.

“Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi er yuzidagi madaniy va genetik fondining, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak”¹

Mintaqada etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlik jarayonlariga moyillik birinchidan geosiyosiy jihatdan hududlarning o'zaro chegaradoshligi, siyosiy-iqtisodiy muammolarning tutashligi hamda transport-kommunikatsiya masalalarida mintaqa davlatlarning bir-biriga bog'liqlik jihatlarining ustunlik shaklda namoyon bo'layotganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqaro hamjamiyatga tahdid soluvchi terroristik, narkotik moddalar oboroti va uyushgan jinoyatchilikka qarshi umumiy faoliyatni yo'lga qo'yishda muhim xarakter kasb etadi.

Mintaqada umumiy hamjihatlik jarayonlariga siyosiy asos yaratuvchi – milliy-hududiy birliklarda etnoijtimoiy jarayonlarning ijobiy rivojiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

XX-asrning oxiri va XXI-asrning boshi shu bilan xarakterlanadiki, bir tomondan insoniyat hamda mana shu jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi milliy davlatlar orasida integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqlarning o'zligini anglab, etnotarixiy qadriyat va milliy madaniyatlarini targ'ib etish xislatlari ham ustunlik darajada namoyon bo'lmoqda. Bugungi davrga xos bu ikki xususiyat o'rtasida sezilarli farqiyatlar mavjud bo'lmasdan, aks holda bir- birini to'ldirib turuvchi fenomen sifatida etnoijtimoiy hayotda ijobiy mohiyat kasb etayotganligi quvonarli holdir.

Etnoijtimoiy hamjihatlik milliy o'zlikni anglashga, yoki milliy madaniyatni targ'ib etishga to'siq bo'lmaganidek, etnik o'zligini anglab, milliy urf-odat,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 73-74 b.

an'analarni tarannum va targ'ib etish ham o'zaro umuminsoniy yaxlitlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har-bir etnos umuminsoniy madaniyat rivojiga o'z hissasini qo'shib, shu bilan bir qatorda bir etnos madaniyati ikkinchi etnos madaniyatining ijobiy qirralari hisobiga boyib, yangicha mazmun kasb etib boraveradi. Millatlararo hamkorlik jarayonlari milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat rivojiga salbiy ta'sir etmasdan, milliy madaniyat ravnaqi va rivojiga keng yo'l ochib, potensial imkoniyatlarning ro'yobga chiqishini ham ta'minlaydi.

Mintaqa xalqlarining milliy mustaqillik tufayli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy hamkorligi yangicha mazmun kasb etib, xalqlarning milliy o'zligini anglash hamda etnotarixiy va madaniy meroslariga mansublik hissining o'sishi bevosita mintaqada umumiy taqdir uchun mas'ullik hissini ham rivojlantirmoqda. Shu bilan bir qatorda bozor munosabatlari tamoyillariga asoslangan huquqiy-demokratik, fuqaroviy jamiyat poydevorining qurilishi xalqlarimizning milliy mentaliteti, geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'ziga xos jihatlarni hisobga olib, ushbu xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda amalga oshmoqda.

Yosh mustaqil davlatlardagi ijtimoiy taraqqiyot bevosita milliy etnik jarayonlarning barqarorligi hamda o'zaro hamjihatlikning ijobiy rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Milliy mustaqillikning ibtidosida ob'ektiv va sub'ektiv sabablar ta'siri natijasida Tojikistonda fuqarolar urushi yuz berib, uning oqibatlari tufayli etnik hamjihatlikka rahna solingan bo'lsada, keyingi yillardagi O'zbekiston tashabbusi bilan boshlanib xalqaro hamjamiyat ta'siri natijasidagi milliy yarashuv vaziyatning nisbatan izga tushishiga zamin yaratdi. Mintaqaning boshqa mustaqil davlatlarida milliy-etnik sohadagi hamjihatlik tabiiy ravishda ijtimoiy taraqqiyotni ta'minladi. Bunday hamjihatlikka eltuvchi jihatlar nazariy tahlil etilib, amaliy faoliyatda etnik barqarorlikning rivoji jamiyatning etnoijtimoiy taraqqiyotida ham juda muhimdir. Shu jihatdan mintaqada tuzilgan Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti hamda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda siyosiy masalalarning yechimida, shuningdek, mintaqada millatlararo munosabatlar rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti mintqa xalqlaridagi umumiylik jihatlarining ustunligi bois, real imkoniyatlarga ega. Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotining 2004-yil may oyidagi Ostona shahridagi sammitida: «Markaziy Osiyo mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari rivojiga ijobiy imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bizning xalqlarimizning ma’naviy birligi savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy aloqalarning rivojini ta’minlaydi»¹, deya ta’kidlanishi tarixiy an’analar zaminida rivojlanishga moyil bo‘lgan ma’naviy-madaniy birligimiz, barcha aloqalarimiz rivojida o‘ziga xos asos vazifasini bajarishiga ishoradir. Ayniqsa, jahonda obruyi va e’tibori oshib borayotgan, Evroosiyo kontinenti hududining beshdan uch qismi, ya’ni 30 mln. kv.km.dan ko‘proq maydonda 1 mlrd 455 mln aholi (Yer shari aholisining yaqin to‘rttdan bir qismi) istiqomat qiluvchi hududlarni madaniy va ijtimoiy jihatdan birlashtiruvchi ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni bajarishi jihatidan Evropa Ittifoqiga o‘xshash tashkilot - Shanxay Hamkorlik Tashkilotining faoliyati mintaqada etnoijtimoiy hamkorlikni ta’minlab, millatlararo hamjihatlikning optimal rivojini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.² Ushbu tashkilot o‘zining ilk faoliyatidan Evroosiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashning yangi qirralarini ochib berib, egallagan hudud va ushbu hududda istiqomat qiluvchi aholining soni jihatidan ham xalqaro miqyosdagi yirik siyosiy tashkilot sifatida BMT, Yevropa Ittifoqi, Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ASEAN va boshqa xalqaro siyosiy birliklar tomonidan e’tirof etilib, Evroosiyo qit’asida ushbu nufuzli tashkilotning tuzilishi nafaqat mintqa, balki, butun dunyoda tinchlikni saqlash, etnosiyosiy jarayonlarning ijobiy rivojini ta’minlashda muhim o‘rin tutishi ta’kidlanmoqda.

¹ Noviy den. Regionalnaya gazeta sodeystvie Sentralno-Aziatskomu sotrudnichestvu i mejdunarodnomu fondu spasseniya Arala. 2004. №4. S. 1.

² Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 1996-yilda Shanxayda Xitoy bilan chegaradosh davlatlar –Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari ishtirokida chegara hududlarda harbiy masalalarda ishonchni mustahkamlash va chegara hududlarda qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida kelishishga erishish uchun yig‘ilishib, siyosiy maydonda Shanxay beshligi nomini oldi. 2001-yilgacha tashkilotga a‘zo davlatlar rahbarlari besh marta rasmiy uchrashdilar. O‘zbekiston 2001-yilning iyunida tashkilotning Dushanbeda bo‘lgan Sammitida qatnashib, tashkilotning teng huquqli a‘zosi sifatida e’tirof etilib, Shanxay beshligi bundan so‘ng Shanxay Hamkorlik Tashkiloti nomini oldi.

Aslida mintaqa davlatlari milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardayoq milliy o'zlikni anglab, tarixiy an'ana va yaxlit etnomadaniy mentalitetga mansublik jihatlarni rivojlantirib, xalqimiz ongida mintaqa taqdiri uchun mas'uliyat hissini chuqur his etishni o'yg'otish maqsadida o'zaro integratsiyaga ehtiyoj sezdi. Ushbu ehtiyojning hosilasi sifatida xalqaro transmilliy-madaniy, jamiyat tashkiloti sifatida Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining tashabbuslari va qo'llab-quvvatlashlari tufayli 1995-yilning 21-noyabrida Toshkentda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi ta'sis etildi. Xalqaro hamkorlikning bu transmilliy modeli O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan «Turkiston-umumiy uyimiz» shiori ostida tuzilib, ayni paytda mintaqa xalqlarining madaniy hamjihatligini ta'minlash yo'lida faoliyatini davom ettirmoqda. Ushbu birlashmaning tuzilishi azaldan yaxlit madaniyat va umumiy mentalitetga mansub bo'lgan mintaqa xalqlari orzularining amaliy ifodasi sifatida ijtimoiy maydonga chiqdi. Assambleya ijtimoiy faoliyatining asosida mintaqa xalqlariga xos tinchliksevarlik, bag'rikenlik, yagona madaniyatga mansublik, o'sib kelayotgan yosh avlod tafakkurida ham ushbu xislatlarni qaror toptirish singari ezgu maqsadlar yotgani quvonchlidir. Shuningdek, ushbu tashkilot mintaqa millatlari orasida madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun turfa tadbir va targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirsamintaqada millatlararo hamjihatlik rivojini yanada ta'minlashga faolroq hissa qo'shgan bo'lardi.

Markaziy Osiyo davlatlarining etnoijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy integratsiyalashuv jarayonlarini harakatga keltiruvchi impuls sifatida Markaziy Osiyo respublikalari davlat boshliqlarining uchrashuvlari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik voqea sifatida mintaqada har tomonlama taraqqiyotni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Milliy bag'rikenglik – mintaqa xalqlari mentalitetida muhim qirra hisoblanib, bu xususiyat asrlar davomida etnoijtimoiy taraqqiyot hamda mintaqa xalqlarining birligini ta'minlab kelgan. Umid bilan aytish kerakki, ana shu bag'rikenglik Markaziy Osiyo davlatlarida o'zaro integratsiyalashuv jarayonlarining ijobiy rivojini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Millatlararo hamjihatlik Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy xarakter kasb etishi bilan bir qatorda global, ya'ni planetar xarakterga ham ega. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ifodasini topgan mintaqada tinchlik va barqarorlikning siyosiy-huquqiy kafolati sifatida, o'zaro yaqin etnogenetik asosga ega bo'lgan xalqlarning milliy an'ana va madaniyatlarini targ'ib etib, mintaqada ijtimoiy-madaniy omillar rivojida hamda jamiyatning umuminsoniy qadriyatlar sari transformatsiyalashuvida asosiy rol o'ynaydi.

Mintaqa xalqlariga xos etnotarixiy omillar ham etnoijtimoiy hamjihatlikning barqaror xarakterga ega ekanligini ta'minlaydi. Chunonchi, o'nlab asrlar davomida Markaziy Osiyo hududida o'ziga xos etnik madaniyat, turmush tarzi va an'analar shakllanib, asrlar davomida rivojlanib bordi. Ayniqsa Sharq va G'arb orasida savdo-iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilgach, Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mintaqamiz xalqlari jahonning turfa xalqlari bilan savdo-xo'jalik, shu bilan bir qatorda madaniy aloqalarni ham rivojlantirib bordi. Ana shunday ijtimoiy-madaniy va savdo iqtisodiy taraqqiyot tufayli mintaqadagi kichik etnik birliklar yirik etnos sifatida shakllanib bordilar.

Mintaqada yashovchi barcha xalqlar va etnik guruhlar tarixi umuminsoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lishi bilan bir qatorda, insoniyat tarixining ibtidosi bevosita bizning ajdodlarimiz bosib o'tgan etnotarixiy taraqqiyot, demak, bizning etnik tariximiz bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqada bugungi etnoijtimoiy holat etnik barqarorlikning doimiy va davomiyligidan dalolatdir.

Shu bilan bir qatorda mintaqada etnik taraqqiyotning sifatiy jihatlarini yanada ustuvor ta'minlash maqsadida quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor qaratish talab etiladi:

1. Mintaqadagi barcha millat va etnik guruh vakillarini etnoijtimoiy hamkorlikning keyingi rivojini ta'minlashga jalb etish;
2. Etnik o'zlikni anglash bilan bir qatorda umumiylik jihatlariga mansublikning konkret holatini aniqlab, etnoijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan etnomadaniy xususiyat va xislatlarning pozitiv hamda negativ jihatlarini aniqlab, ijobiy xususiyatlarning ustunlik mavqeini ta'minlash;

3. Etnik guruhlar, millatlar va hududiy birliklararo munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun transmilliy etnoijtimoiy institutlar faoliyatini jonlantirish;
4. Etnik xususiylik va umumiylik jihatlarini, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari mentalitetidagi umumijtimoiy xislatlarni o'rganish maqsadida kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish;
5. Milliy madaniyatlarning ko'pqirraliligini ta'minlash maqsadida mintaqada etnik integratsiyalashuv jarayonlarining indikatori bo'lib hisoblangan Milliy Madaniy Markazlar faoliyatiga keng e'tibor qaratish;
6. Mintaqa xalqlarida umumfuqaroviy, yaxlit mentalitet va umumiy hududga mansublik xislatlar rivojini Milliy Madaniy Markazlar, ziyolilarning o'zaro uchrashuvi, adabiy va madaniy dekadalar hamda siyosiy tadbirlar orqali rivojlantirib borish.

Yuqoridagi jihatlariga e'tibor qaratish, xalqlarimiz orasida o'zaro etnoijtimoiy hamjihatlik rivojiga xizmat qiluvchi pozitiv omillar bo'lib hisoblanadi.

Milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo respublikalari sobiq totalitar tizimning xalq xo'jaligini boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubi tufayli vujudga kelgan qator muammolar girdobida qolganligi hech kimga sir emas.

Sobiq tizim sharoitida kurtaklab ildiz otgan mana shunday muammolarni bartaraf etish mintaqadagi har-bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Sobiq tizim manfaatiga xizmat qiluvchi mug'ambirona milliy siyosat Markaziy Osiyo xalqlari orasida o'zaro o'xshashlik jihatlarni emas, balki farqiyatlarni bo'rtirib ko'rsatib, mintaqa xalqlari orasida nifoq urug'ini sochishdan manfaatdor edi. Xuddi shu tariqa o'zbeklar bilan mesxeti turklar orasida, o'zbeklar bilan qirg'izlar orasida nifoq urug'ini sochishga bo'lgan harakatlar mintaqada etnointegratsiyalashuv jarayonlarining ijobiy rivojiga emas, balki mintaqa xalqlari orasida o'zaro dushmanona kayfiyat o'yg'otish uchun qilingan strategik maqsad edi. 1990-yillardagi Farg'ona voqealarini eslab siyosiy arbob Nuriddin Muhiddinov ushbu voqealar jarayonida Farg'ona vodiysiga borganligini, o'zbek

milliy kiyimlarini kiygan, aslida boshqa millatga mansub kishilarning suratlarini ko'rganligini ta'kidlab, ular o'zbek millati nomidan millatlararo nizo urug'larini sohib yurganligini kuyinib gapiradi.¹ Bular albatta mintaqada millatlararo hamjihatlikka rahna solib, milliy zaminda qurolli nizo va mintaqada siyosiy beqarorlikning avj olishidan manfaatdor kuchlarning ishi edi.

Milliy mustaqillik jarayonlari yangi, sifatiy bosqichga ko'tarilayotgan bugungi pallada qator muammolarga e'tibor qaratib ijobiy hal etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shulardan biri mintaq xalqlari orasida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirib, yaxshi qo'shnichilik, jumladan qarindoshlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Xuddi shu o'rinda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zbek millatining Markaziy Osiyo davlatlari hududida yashovchi millatdoshlari bilan yaqindan munosabatda bo'lishini progressiv jarayon sifatida ta'kidlab: «Shuning uchun ham O'zbekiston Markaziy Osiyoning suveren davlatlari orasida chuqur, har tomonlama o'zaro aloqalar o'rnatish va mintaqada mustahkam xavfsizlik tarafdoridir. Integratsiyaning ijobiy natijalari millatlar o'rtasidagi muloqotga va mintaqaviy xavfsizlikka yordam beradi»,² - degan fikrlari har-bir millatning etnoijtimoiy taraqqiyoti bevosita o'z milliy davlatchiligi hududidan chetda yashovchi millatdoshlarining taqdiriga mas'ullik hamda qo'shni millatlar bilan o'zaro hamkorligiga bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasida tub erli aholi orasida o'nlab asrlardan buyon qon-qarindoshlik aloqalari mavjud bo'lib, respublikalar aholisi orasida quda-andachilik an'analari bugungi kunda ham davom etayotganligi albatta, quvonarli holdir. So'rov ma'lumotlariga murojaat qiladigan bo'lsak, respondentlarning aksariyati qo'shni respublikalar aholisi bilan mustahkam qon-qarindoshlik aloqalariga ega ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Biz O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari misolida ma'lumotlarni taqqoslaydigan

¹ Jo'raev N. O'zligini anglash mavridi. -T.: O'zbekiston, 1990. 22-23 b

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - 87 b.

bo'lsak, o'zbekistonlik respondentlarning 37,1%,tojikistonlik respondentlarning 42,9% - Markaziy Osiyo davlatlari hududida yashovchi aholi bilan o'zaro qon-qarindoshlik aloqalariga ega ekanligi aniq bo'ladi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi o'zaro integratsiyalashuv hamda etnoijtimoiy hamjihatlik jarayonlari rivojini kuzatib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlar rivoji etnoijtimoiy taraqqiyotda tabiiy jarayon sifatida ijobiy mohiyat kasb etib boraveradi.
2. Mintaqa milliy hayotidagi xususiylik, ya'ni alohida etnik guruhga mansublik xislatlari asta-sekinlik bilan umumiy jihatlarning ustunligiga hamda etnoijtimoiy barqarorlikka asoslangan huquqiy-demokratik jamiyatga va umuminsoniy qadriyatlarga mansublik xislatlari o'sib boraveradi.
3. Tashqi tahdid (ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik) mintaqada etnik taraqqiyot rivojiga salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida hamda bu tahdidning fojiali oqibatlarini chuqur his etgan mintaqa xalqlarining ushbu fojiaga qarshi integratsiyalashuv mavqei va harakatlari yana ham oshadi.
4. Bugungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotning bosh omili sifatida mintaqada etnik barqarorlik, yaxshi qo'shnichilik ruhida yashab kelayotgan xalqlarning yanada yaqinlashib, munosabatlarning teran, ijobiy mazmunga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.
5. Muhimi, etnoijtimoiy hamjihatlik jarayonlarining ijobiy rivoji mintaqada etnik taraqqiyotni ta'minlash bilan bir qatorda, hozirgi davr uchun global muammo bo'lib hisoblangan mintaqaviy xavfsizlikning ham ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi.
6. Mintaqada bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot respublikalarda tub millat manfaati bilan bir qatorda barcha etnik guruhlarining ijtimoiy manfaatlarining kafolati sifatida ijobiy mohiyat kasb etib boraveradi.
7. Mintaqa xalqlariga xos bag'rikenglik tamoyili o'zaro yaxlitlikni ta'minlash bilan bir qatorda mintaqa davlatlarining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayonlarining ijobiy rivojini ham ta'minlaydi.

O'zbekistonning bugungi siyosati mintaqaviy etnoijtimoiy hamkorlikdan xalqaro miqyosdagi integratsiyaga – milliy manfaatlarning ustuvorlik darajasini ta'minlash maqsadida jahonning yetakchi mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlikka qaratilgan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy-harbiy beqarorlik O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir etayotganligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mintaqada aksilterror koalitsiyaning faoliyati hamda bu sohadagi muvaffaqiyatlari Markaziy Osiyoda ijtimoiy vaziyatning ijobiy rivojida ham muhim o'rin tutadi. Jahonning yetakchi davlatlarining mintaqada ta'sir doirasining kuchayishi, terrorizm, diniy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar va qurol-aslaha kontrabandasi dolzarb muammo bo'lib qolayotganligi bois, mintaqaviy hamkorlik doirasida ushbu muammolarning ijobiy yechimi nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning mintaqada aksilterror koalitsiyani birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlashi, nafaqat mintaqada, balki butun jahonda xavfsizlikni ta'minlashda hamda erkinlik va demokratik qadriyatlar himoyasi uchun mavjud imkoniyatlarini safarbar etishi tufayli jahon hamjamiyati, tinchliksevar kuchlarining hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lib, xavfsizlikka tahdid soluvchi har qanday transmilliy xavf-xatarga qarshi istiqbolli strategik hamkor sifatida yetakchi davlatlar tomonidan e'tirof etildi.

Ushbu jihatlar bevosita mintaqada etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlikka ta'sir etuvchi omillar bo'lib, O'zbekiston mintaqa xavfsizligini ta'minlashda etakchi davlat sifatida muhim o'ringa ega.

Xullas, etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlik jamiyat taraqqiyotida muhim omillardan biri bo'lib, etnoijtimoiy tushunchasini ijtimoiy hayotda etnik birliklar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayon sifatida qaralsa maqsadga muvofiqdir.

Millatlararo hamjihatlik esa ushbu hududiy birlikda istiqomat qiluvchi barcha millat va etnik guruhlarining birligini ta'minlashni, shuningdek, mintaqada tinchlik va totuvlikni mustahkamlash yo'lida omil bo'lib hisoblanuvchi qo'shni mamlakatlar va jahondagi manfaatdor davlatlar bilan hamkorlikni taqozo etadi.

O'zbekistondagi millatlararo hamjihatlik mintaqadagi tinchlik va taraqqiyot garovidir. Qolaversa, jahon miqyosida turfa tahdidlarning kuchayayotganligi sharoitida, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar hududidan uyushgan jinoyatchilarning narkokaridor sifatida foydalanishga urinishlari ham tahdid sifatida saqlanayotgan hamda tashqaridagi ayrim kuchlar tomonidan mintqa xalqlari orasidagi umumiy jihatlar emas, balki o'ziga xos xususiy jihatlarini bo'rtirilib, o'zaro nizo solishga harakatlar bo'layotgan bir sharoitda mintaqaviy, ya'ni millatlararo hamjihatlikni ta'minlash umumiy taraqqiyot uchun har qachongidan ham muhimdir. Chunki, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi etakchi davlat sifatida, aholi soni, shuningdek, geosiyosiy jihatdan mintaqaning markazi, aytish mumkinki, yuragi (Heartland) bo'lganligi bois O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat mintqa davlatlari hududidagi vaziyatni belgilovchi omildir. Demak, mamlakatdagi tinchlikka hissa qo'shish barchamizning zimmamizdagi vazifadir.

1.3. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – etnosiyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida

Keyingi 20-25 yillar davomida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyotida diniy omilning kuchayib borishi tufayli jahonda, shu jumladan O'zbekistonda ham dinni siyosiy lashtirib, o'z g'arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan guruhlar, turli diniy harakatlar ham kuchayib bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'shma majlisida bunday holatga yo'l qo'yib bo'lmasligi va uni tag-tugi bilan yo'qotish zarurligiga alohida urg'u berib shunday degan edi: «...islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyr tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xom hayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizlarini qirqib tashlash kerak».¹

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. //O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi, T.13.-T.: "O'zbekiston", 2005. – B.200.

Shuningdek, Prezidentimiz xalifalik qurish xom hayol ekanligini va bunday safsataning zaruriy tarixiy jarayonlar oqimiga, hatto oddiy mantiqiy tafakkurga zidligini ta'kidlab shunday deydi: «Bunday soxta, zamirida hech qanday asos bo'lmagan safsatalar haqida gapirganda, avvalo bugun biz XXI asrda yashayotganimizni esdan chiqarmasligimiz kerak. Va hozirgi o'ta murakkab, shiddat bilan o'zgarib, taraqqiy etayotgan kompyuter va telekomunikatsiya davrining ming yillar oldin mavjud bo'lgan sharoit va vaziyatdan er bilan osmoncha farqi borligini oddiy odam ham tasavvur qilishi qiyin emas».² Shu nuqtai-nazardan jahonning turli mamlakatlarida faoliyat ko'rsatayotgan din niqobi ostidagi terrorchi tashkilot «rahbarlari» ham, ularning O'zbekistondagi izdoshu-maslakdoshlari, aniqrog'i gumashtalari ham ehtirosu-hissiyotlar ta'siriga tushib qolgan hayolparastlardir. Ammo, siyosat, mafkura, g'oyaviy kurash jabhalaridagi nosog'lom, ma'naviy tuban hayolparastlik, insoniyatga, jamiyatga juda qimmatga tushishi mumkinligini unutmaslik kerak. «Hissiyot va ehtiroslar ta'siriga tushib qolgan inson, - deb yozadi akademik E.Yusupov – biror muammoni chuqur aqliy tahlil etish imkonidan ham mahrum bo'lib qoladi. Bu esa, adolatsizliklarga, behuda qon to'kishlarga, davlat qabul qilgan qonunlarni oyoqosti qilishga olib keladi. Qonunni mensimaslik – uni qabul qilgan jamiyatni ham mensimaslikdir».³

O'zbekistonga kirib kelgan yuqorida zikr etilgan barcha oqimlarning faoliyati huquqiy jihatdan jinoyat, siyosiy jihatdan qonunsiz, nazariy jihatdan hozirgi davr jamiyat taraqqiyoti qonunlariga zid, mafkuraviy jihatdan tuban va g'ayriinsoniydir. Shunday ekan, jamiyatda beqarorlik muhitini vujudga keltirayotgan, shaxs va jamiyat munosabatlarida odamlar o'rtasida nizo va adovat urug'ini sochayotgan diniy ekstremistlarning terrorchilik harakatlariga qarshi faqat ma'muriy va huquqiy choralar bilangina emas, balki mafkuraviy, g'oyaviy choralar bilan kurash olib borishni taqozo qiladi. Aytish joizki, ba'zi holatlarda bunday chora-tadbirlar ma'muriy va huquqiy chora-tadbirlarga nisbatan qiyinroq, lekin

² Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizda, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq // (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida so'zlagan nutq.) (Xalq so'zi 2002 yil 30 aprel). Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimiz, hamjamiyatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq, T.12.-T.: "O'zbekiston", 2004. – B.252.

³ Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. T.: 1998. – B.10.

samaraliroq ham bo'lishi mumkin. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitida so'zlagan nutqida shunday deydi: «Biz aqidaparastlik mafkurasi deb ataydigan yovuz kuch, birinchi navbatda yoshlarimiz ongini egallayotgan va zaharlayotgan, ularni o'zining itoatkor quliga aylantirayotgan mafkura yo'lida mustahkam to'siq qo'yish bugungi kunda muayyan jinoiy guruhlarini yo'q qilishdan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etmoqda».²

Albatta, diniy ekstremizmga qarshi kurashda mafkuraviy, g'oyaviy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishning zarurati, bu ofatning oldini olishga va bartaraf qilishga yordam berishi bilan bir qatorda shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg'unlashtiradi, eng muhimi jamiyatda siyosiy barqarorlikning yana ham mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ana shunday mafkuraviy va g'oyaviy jihatdan kurash olib borishning eng samarali va ta'sirchan vositalaridan biri mamlakatimiz fuqarolari, xususan islom diniga e'tiqod qiluvchilar, ayniqsa, yoshlar ongiga diniy bag'rikenglik g'oyasi va his-tuyg'ularini singdirish va mustahkamlashdir. Bu nafaqat bizning jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik muhitini vujudga keltirishda, mamlakatimizda yashovchi turli millat va diniy e'tiqodga mansub fuqarolar o'rtasida munosabatlarni uyg'unlashtirishda, hamda do'stona munosabatlarni mustahkamlashda, shu bilan birga turli mamlakatlar bilan savdo, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlik munosabatlarni o'rnatib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlikda madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi. Shuningdek, dunyoning turli irqqa, millatga, dinga mansub xalqlari bilan o'zaro ishonch, hurmat-ehtirom, do'stona munosabatlar rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan xalqaro miqyosda ham katta mafkuraviy va siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Diniy mutaassiblik, fundamentalizm va ekstremizmga qarshi g'oyaviy, mafkuraviy hamda ma'naviy-ma'rifiy kurash chora-tadbirlari masalasiga kelsak,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutqi. Biz tanlagan yo'l, demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li, T.11.-T.: "O'zbekiston", 2003. – B.278.

bu borada O'zbekistonda amalga oshirilgan va oshirilayotgan amaliy ishlar ma'lum darajada o'z ijobiy samarasini berishi shubhasizdir. Ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekistonda rasmiy ravishda davlat tomonidan huquqiy hujjatlashtirilgan 16 ta diniy konfessiya tashkilotlari faoliyat yuritadilar. Turli dinga mansub fuqarolar huquqiy va ma'muriy jihatdan biron to'siqqa, tazyiqqa uchramagan holda o'z e'tiqodlariga ibodat qiladilar. Ularni huquqiy va ma'muriy jihatdan muhofaza qilish bilan birga, g'oyaviy va ma'naviy jihatdan ham qo'llab-quvvatlash borasida ham katta ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, so'nggi yillarda O'zbekistonda mashhur musulmon ilohiyotchi ulamolar, mutasavviflar sharafiga bag'ishlangan qator anjumanlar bilan birga, xristian dinining sanalariga, islomning boshqa dinlar bilan munosabati masalalariga bag'ishlangan qator respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar o'tkazildi

Ayni vaqtda, inson huquqlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita, Baynalmilal madaniyat markazi, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganuvchi markazi va xalqaro jamg'armalar bilan birgalikda 1999 yildan boshlab, deyarli har yili «Dinlararo muloqot – barqarorlik asosi» deb nomlangan seminarlar o'tkazib kelmoqda.

Din, vijdon va dunyoqarash erkinligi borasida mamlakatimizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan ushbu choralar nafaqat mamlakatimizda yashovchi turli xil millatga va dinga mansub fuqarolar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashda, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda ham o'z samarasini bermoqda.

Siyosiy barqarorlik esa, jamiyat tinchligi va taraqqiyotini ta'minlashdagi muhim omillardan biridir. Zero har qanday mamlakat o'z siyosiy tizimini shakllantirib, hayotga joriy etishda «bag'rikenglik» (tolerantnost) ni ta'minlovchi omillardan keng foydalanishga harakat qiladi. Shulardan biri diniy bag'rikenglikdir. Din va uning bag'rikenglik xususiyati insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida, ma'naviy-madaniy hayotning rivojida asosiy omillardan biri bo'lib kelgan. Shu boisdan din barcha mamlakatlar va

jamiyatlarning siyosiy barqarorligini ta'minlashga, ma'naviy-madaniy, hattoki iqtisodiy taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

Jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashning bugungi kunda kechiktirib bo'lmaydigan muammoga aylanishining yana bir sababi shundaki, XX asr oxirgi choragida dunyo xaritasida o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan yangi suveren davlatlar paydo bo'ldi. Bu davlatlar o'z siyosatida tarixiy tajribadan qolgan fojeali oqibatlarni bartaraf qilish, yangi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan muammolarni hal qilish va demokratik tamoyillarni qaror toptirishga intilmoqdalar.

Bunday vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun siyosiy barqarorlikni ta'minlash zarurligi o'z-o'zidan ma'lum. Siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillarining ichida din, diniy bag'rikenglikning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir.

Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Eng muhimi, eng asosiysi – xalqimiz o'zining sabru-matnatini, donishmandligi va bag'rikengligini, mehnatsevarlik fazilatlarini va bunyodkorlik qudratini belgilangan maqsad sari, avvalo o'z kuchi va salohiyatiga tayangan holda qat'iyat bilan borishga qodir ekanini butun dunyoga namoyon etdi».¹

Tadqiqotchi Z.Munavvarovning ta'kidlashicha, davlatimizning mamlakatimizda huquqiy, demokratik davlat bunyod etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida olib borayotgan odilona siyosatida dinga bo'lgan munosabatni belgilovchi tamoyillar Konstitutsion mezonlarga asoslangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunidan kelib chiqadigan ikkita muhim jihatiga e'tiborni qaratish lozim: birinchidan, O'zbekistonda yangi «Jamiyat qurish konsepsiyasida din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olinadi. Ikkinchidan, sof diniy e'tiqodlarni qondirishdan

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li, T.11. – T.: "O'zbekiston", , 2003. – B.49..

tashqari har qanday g'arazli maqsadlarga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'iyman etiladi».¹

Davlatimiz ichki siyosatining diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lida ana shu ikki prinsipial jihati mamlakatimizda istiqomat qiluvchi ko'pmillatli xalqlarning turli diniy e'tiqodga mansub bo'lishiga qaramay ular o'rtasida do'stlik, barqarorlik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Davlatimizning dinga nisbatan bo'lgan siyosatida bu vaziyatni hisobga olgan holda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirib boriladi va shu asosda mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ham kengayib boradi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir².

Konfessiyalararo munosabatlarning o'zaro hamkorlik, do'stlik yo'lidan borishini ta'minlash davlatning siyosati darajasiga ko'tarilgan desak bo'ladi. Bu masalaga davlatimiz rahbari o'z asarlarida alohida e'tibor berib kelayotganini bilamiz. Jumladan, Prezidentimiz I.Karimov shunday ta'kidlagan edi: «Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirish mana shunday siyosiy davlat va konstitutsiyaviy tuzumga erishish kalitidir».² Bunday siyosatga asoslangan diniy bag'rikenglik shaxs va jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatishi muqarrar. Shaxsning shakllanishida diniy bag'rikenglikdan tashqari dunyoviy bilimlarda ham, diniylikda ham til bilan dil birligi, halol mehnat bilan kun kechirish, oilani boqish, tarbiyalash, insofli, diyonatli, adolatparvar bo'lish, saxiylik, muruvvatlilik, o'z xalqi, uning madaniyati haqida qayg'urish, milliy iftixorni oyoqosti qilishga yo'l qo'ymaslik faqat etuk vijdonli shaxslargagina xos fazilatdir. Zero, ana shunday shaxslar o'z xatti-harakatlarini o'ylaydigan mezon-muayyan g'oyaviy, axloqiy, qadriyatlarga ega bo'ladilar.

¹Munavvarov Z. Dunyoviy jamiyat va din, Islom: bag'rikenglik, mutassiblik. To'plam. Toshkent 1998. –B.19.

²Ibragimov E. O'zbekiston – diniy bag'rikenglik o'lkasi. //O'zbekiston – bag'rikeng diyor. – T.: "O'zbekiston", 2007. – B.69

²Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. //O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura, T.1.-T.: "O'zbekiston", 1996. – B.48-49.

O'zbekiston fuqarolari, ayniqsa yoshlar dinga berilgan bunday erkdan to'g'ri foydalanishlari, ayni vaqtda barcha hatti-harakatlar vijdon erkinligi doirasida bo'lishi lozim. Ana shunday bo'lgandagina diniy e'tiqod, uning qadriyatlarining shaxs kamolotini shakllantirishdagi o'rni orta boradi. Jamiyatda esa, barqarorlik, bahamjihatlik, tinchlik saqlangan holda shaxs va jamiyat munosabatlarida o'zaro hamkorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar shakllanishi bilan taraqqiyotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu tariqa din ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyat istiqbolida siyosiy barqarorlikni ta'minlashda munosib hissasini qo'shadi.

Dinning shaxs va jamiyat taraqqiyotida siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnining muhim jihati shundaki, hozirgi sharoitda dinga va diniy tashkilotlarga berilgan erkinlikdan qonun doirasida foydalanishdir. Shuning uchun dindan davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan hatti-harakatlarda foydalanishga, yoshlarni turli tuman norasmiy diniy harakatlarga jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi. Muxtasar qilib aytganda, shaxs kamolotining mazmuni shundaki, u dinga bo'lgan munosabatini mavjud qonunlar asosida, xususan vijdon erkinligi to'g'risidagi qonun asosida, - insonparvarlik, vatanparvarlikdan iborat ma'naviy-axloqiy fazilatlarini esa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tamoyillari va boshqa qonunlar asosida belgilaydi. Ana shunday shaxs haqiqiy vatanparvar, o'z xalqi, millatiga sodiq ma'naviy qadriyatlarni ardoqlovchi inson sifatida namoyon bo'ladi.

Taraqqiyotning hozirgi sharoitida, diniy e'iqodi turlicha bo'lgan 130 dan ortiq millat istiqomat qiluvchi O'zbekistondagi mavjud diniy konfessiyalar shaxs va jamiyat munosabatlarini huquqiy, siyosiy, axloqiy fazilatlarini shakllantirish orqali siyosiy madaniyatni ham tarbiyalashga ko'maklashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasi yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqida «Ming yillar davomida turli-tuman din, madaniyat va turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarning

birgalikda yashashi va hamkorligi markazi bo'lgan O'zbekiston buni inkor etib bo'lmaydigan tasdig'idir»,¹ degan edi.

Davlatimiz rahbari YUNESKOning 155-sessiyasidagi so'zini davom ettirib, shunday degan edi: «Qadim zamonlardan bu erda musulmonchilik, nasroniylik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa ko'pgina dinlar nafaqat birga yashagan, balki bir-birini to'ldirgan, boyitgan. Aynan shu zaminda yuz yillar davomida dunyo madaniyatlarining katta miqyosdagi bir-birini boyitish jarayoni yuz bergan O'zbekistonda turli diniy oqim va konfessiyalarning mavjudligi ham shu bilan izohlanadi».²

16-noyabr 1995 yilda YUNESKO a'zolari bo'lgan 185 davlatlar tomonidan bag'rikenglik prinsiplari Deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyaning 1-moddasida bag'rikenglik o'zimiz yashab turgan dunyo madaniyatining boy va xilma-xilligini, inson individualligi namoyon bo'lish shakllari va usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunish, vijdon va e'tiqod erkinligi sifatida izohlangan. «Bag'rikenglik - bu ko'p qirralikda namoyon bo'luvchi birlikdir. Bu ma'naviy burch bo'libgina qolmay, ayni bir paytda siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir».³

Bugungi kunda jahonda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish muammosi ko'pchilik davlatlarning barcha sayi-harakatlarini ishga solishni taqozo etmoqda. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarining, xususan vijdon erkinligi qoidalarining izdan chiqishi, turli dinlarga mansub bo'lgan xalqlarning diniy erkinliklarini nazar pisand qilmaslik, turli mojarolarning kelib chiqishi, millatlararo kelishmovchilikka olib kelishi natijasida davlatlarning siyosiy barqarorligiga putur etkazishi mumkin.

¹ Karimov I.A. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi: Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, T.7.-T.: "O'zbekiston", 1999. – B.203.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi: //Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, T.7.-T.: "O'zbekiston", 1999. – B.203-204.

³ Yunusova O. Markaziy Osiyo dinlararo muloqotning zamonaviy muammolari. // Ijtimoiy fikr: inson huquqlari. T.: 2002. № 4. – B.58.

Shuning uchun ham, mustaqilligimizning birinchi yillaridayoq inson huquqlari, vijdon erkinligi, diniy e'tiqod masalalari bilan bog'liq diniy bag'rikenglik davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda dinlararo va millatlararo munosabatlar davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasida yaxshi aloqalar yo'lga qo'yilganligi nafaqat respublikamizda diniy bag'rikenglikni, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ham ta'minlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Masalan, noislom konfessiyalarining 100-120 nafar vakili Rossiya va Isroildagi muqaddas joylarni ziyorat qildilar va jamiyatda tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlashga zamin bo'luvchi siyosiy barqarorlikni shakllantirishdagi dinlarning roli va o'rne xususida suhbatlar o'tkazdilar.

Davlatimizning dinga nisbatan siyosati, uning konstitutsiyasidagi inson huquqlari, e'tiqod va vijdon erkinligi tamoyillariga asoslanib, biror millatni yoki diniy e'tiqodni kamsitishga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, respublikamizdagi mavjud boshqa konfessiyalarning ham rivojlanishiga doimo e'tibor qaratib kelmoqda. Masalan, tadqiqotchi F.Adilov mustaqillik yillarida yuzlab cherkovlar, senagoglar va duo uylari qurilib, ta'mirlanganligi, Toshkent, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi pravoslav cherkovlari, Toshkent shahridagi katolik kosteli, Samarqand shahridagi arman apostol cherkovi, Toshkent shahridagi budda ibodatxonalari faoliyat ko'rsatayotganligi haqida yozadi.¹

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ma'naviy zamini bo'lgan diniy bag'rikenglikni to'liq ta'minlashga yo'l ochilganligi va qonuniy kafolatlanganligi yuqorida keltirilgan dalillardan yaqqol ko'rinadi. Binobarin, barcha fuqarolarning e'tiqod va vijdon erkinliklari to'la ta'minlanganligini respublikamizda hozirgi paytda 17 turdagi 170 dan ziyod diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishida yaqqol ko'rish mumkin.

Buning isboti sifatida Prezident I.Karimov o'z nutqida shunday ta'kidlagan edi: «Men faxr bilan aytishim mumkinki, xalqimizning butun tarixi

¹ Adilov F. O'zbekistonda konfessiyalararo kelishuvni mustahkamlash masalalari. Bag'rikenglik jamiyat barqarorligining asosi. (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari)-T.: 2002. – B.36.

davomida hech qanday diniy nizo, odamlarning millati va diniy mansubligiga qarab ayirish hollari bo'lmagan va bunga biz hech qachon yo'l qo'ymaymiz».¹

Shaxsning mehr va muruvvatlilik kabi yuksak axloqiy fazilatga ega bo'lishida barcha ob'ektiv va sub'ektiv omillar qatori diniy qadriyatlarning ta'siri kattadir. Agar shaxs tarbiyasida dinning ezgulik xususiyatlari asos qilib olinmasa, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning dindan g'arazli niyatda foydalanuvchilar ta'siriga tushib qolishi oson bo'ladi. Madomiki, shunday ekan shaxs kamolotining to'g'ri yo'naltirilishi jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi muhim jihatdir.

Vatanimizda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati shakllanayotgan hozirgi sharoitda kishilar o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamjihatlik, sahovatlilik, mehr va muruvvatlilik kabi axloqiy mezonlarni mustahkamlanishi shaxs va jamiyat munosabatlarining o'zaro ta'siri va rivojlanishiga, yangi jamiyat istiqbol rejalarining amalga oshishiga ko'maklashadi.

Har bir shaxs muayyan jamiyatning a'zosi sifatida o'z malakasi, qalbiga joylashgan mehr va muruvvatlilik darajasida jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissani qo'shadi, jamiyat esa o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari nuqtai-nazardan kelib chiqib, shu yo'nalishga mos shaxslarni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Xalqimiz oldida turgan juda katta vazifalar qatori fuqarolarda mehr va muruvvatlilikni mustahkamlash masalasi ijtimoiy taraqqiyotimizning juda ko'p yo'nalishlariga bog'liq holda kechadi. Chunki, bu tuyg'u yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish yo'lidagi maqsad va intilishlarimizni ro'yobga chiqarishning muhim omillaridan biridir.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, XX asrning oxirgi choragi XXI asrning hozirgi sharoitida jahon xalqlari hayotida globallasuv muammolari yuzaga kela boshladiki, bu jarayonning bir yo'nalishi millatlararo va dinlararo munosabatlarda bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda diniy bag'rikenglikni ta'minlash orqali jamiyat taraqqiyotida

¹ Karimov I.A. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi. //Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, T.7.-T.: "O'zbekiston", . 1999. – B.204.

ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni shakllantirish zaruriyati tug'ildi; ikkinchidan, diniy bag'rikenglikka asoslangan ongni barcha jahon xalqlarida, ularning millati, irqi, tili, dini, madaniyatidan qat'iy nazar shakllantirish din erkinligini umumjahon miqyosida hal etish bilan bog'liqdir. Shu boisdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «Din yoki e'tiqodlar zamiridagi murosasizlik va kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi deklaratsiya» va boshqa bandlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida «har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega» (18-modda). «Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin» (22-modda); uchinchidan, O'zbekistonda din va e'tiqod erkinligining to'liq ta'minlanishi va uning konstitutsion kafolatlanishi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud dinlarning o'rni va rolini oshib borishiga ma'naviy zamin yaratadi; to'rtinchidan, demokratik, huquqiy va insonparvarlik jamiyati bunyod etish jarayonida siyosiy barqarorlikni ta'minlash shaxs va jamiyat munosabatlariga oid muammolar bilan ham bog'liq. Shunday muammolardan biri shaxsda va umuman jamiyatda diniy va siyosiy ong darajasini ilmiy asosda shakllantirib borish muhimdir; beshinchidan, davlatimizning dinga nisbatan siyosatida diniy qadriyatlar barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli degan tamoyillarga asoslanib, shaxs va jamiyat taraqqiyotida barqarorlik diniy va millatlararo bag'rikenglikni ta'minlashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

II-BOB. MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ETNOSIYOSIY JARAYONLAR VA MILLATLARARO HAMKORLIK RIVOJI: YUTUQLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR.

2.1. Markaziy Osiyodagi millatlararo munosabatlarning etnohududiy va diniy jihatleri

Mintaqa atrofida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar bu yerdagi etnosiyosiy va diniy omillarga alohida e'tibor berishni talab etadi. Mintaqa atrofida yetakchi davlatlarning turli xarakterdagi manfaatlari tezlik bilan shakllanib borayotganligi hamda ularning o'zaro to'qnashuvi ehtimoli ushbu omillarning tashqi kuchlar tomonidan ishga solinishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Buning isboti uchun bir necha yil davomida mintaqada diniy ekstremistik va fundamentalistik g'oyalarni tarqatish oqibatida ro'y bergan jarayonlar va mudhish voqealarni eslash kifoya bo'lsa kerak.¹

Turli nodavlat tashkilotlari ko'rinishida mintaqaga kirib kelgan tashqi kuchlar bu yerdagi davlatlar, xalqlarni bir-biridan ajratishga qaratilgan hatti-harakatlar olib borishganligini osongina kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda, turli nodavlat, notijorat ammo xalqaro mavqega ega bo'lgan bunday tashkilotlar mintaqadagi muammoviy nuqtalarni izlab topishga, ularni dolzarblashuvi uchun turli mavzularda anjumanlar tashkil etishlari, bunday muammolar to'g'risida mahalliy olimlar va tadqiqotchilar yordamida maqolalar chop etishlari mumkin. Bunday faoliyat mintaqada geosiyosiy manfaatlari mavjud bo'lgan davlatlar tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi va ularning tashqi strategiyasi yo'nalishi hamda faolligiga qarab kuchayishi va susayishi mumkin. Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Qozog'iston va Qirg'izistonda bunday faoliyatda bo'lgan tashkilotlar ko'p bo'lib, ular mintaqadagi etnik, hududiy, suv taqsimoti kabi masalalardagi nizoli nuqtalarni qidirib topishga va ularga urg'u bergan holda mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirishga harakat qilishadi.

¹ Nurullaeva Sh. Religiozniy ekstremizm i borba s nim. O'zbekistonda politologiya. «SHARQ» 2002. – b.45.

Bu mintaqadagi elatlar munosabatlarning xatarli jihatlari xususida xorijiy OAVda ayniqsa, keyingi yillarda chiqishlar kuchayib ketdi. Bu chiqishlarning asosiy ko'pchiligi tashqi siyosiy kuchlarning buyurtmasi asosida tayyorlanishini esdan chiqarmagan holda, mintaqadagi elatlar munosabatlari, umuman etnosiyosiy masalaning asli holiga nazar tashlaymiz.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy qismi turkiyzabon sunniy musulmonlardan iboratdir. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar hamda uyg'urlar mintaqaning mahalliy elatlari hisoblanadi. Milliy guruhlarining mintaqaga bo'ylab joylashuviga muvofiq ravishda tarixiy taraqqiyot natijasida har bir tub elatga xos ziynat, turmush tarzi, xo'jalik yuritish uslubi, an'analar va milliy ruh shakllangan. Masalan, mintaqaning shimoliy qismida asosan, qozoqlar, qirg'izlar, shimoliy-g'arbda qoraqalpoqlar, shimoliy-sharqda va sharqda qirg'izlar hamda uyg'urlar, g'arbiy va janubiy-g'arbiy hududlarda turkmanlar, janubda va janubiy-sharqda afg'onlar, tojiklar va boshqa ayrim elatlar, mintaqaning markaziy hududlarida esa asosan, o'zbeklar istiqomat qilishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday joylashuvda hech qanday sun'iylik ko'zga tashlanmaydi va tarixiy shakllangan etnik chegaralarning ifodasi hisoblanadi. Aslida ham shunday, ya'ni Markaziy Osiyoning mahalliy elatlari qadim-qadimdan ana shu hududlarda istiqomat qilishgan va o'zlariga tegishli hududning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos ravishda tiynati, ruhiyati hamda an'analari shakllangan.

Shimoliy hududlarda istiqomat qiluvchi elatlar qadimdan asosan, ko'chmanchilik bilan hayot kechirganlari uchun, ularda shunga mos xo'jalik yuritish tizimi shakllangan. Asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va turkmanlarda urug'-qabilachilik asosida qurilgan siyosiy tizim mavjud bo'lgan. Ko'pgina o'zbek urug'lari bilan qozoq va qirg'izlarda an'analar, rasm-rusumlar va turmush tarzi borasida ko'pgina o'xshashliklar mavjud. Chunki o'zbek urug'lari ham qadimda ko'chmanchilik bilan turmush kechirishgan. O'zbeklar, uyg'urlar va tojiklar nisbatan uzoq davlatchilik tarixiga esa bo'lganliklari tufayli ularning xo'jalik yuritish tizimi hamda turmush tarzi o'ziga xos tarzda rivojlangan. Shaharlashuv jarayoni, ishlab

chiqarish munosabatlari nisbatan erta rivojlangan bu elatlar tashkil etgan siyosiy tizimlarda urug'-qabilachilik an'analari saqlanib qolgan bo'lsada, nisbatan tugal davlatchilik mexanizmi shakllangan.

Hech bir elat o'ziga tegishli hududning u yoki bu xususiyatidan norozi bo'lmagan, boshqacha aytganda farzand ota-onani tanlay olmagan kabi hech bir elatning tarixiy vatanni tanlash yoki uni biror yoqqa ko'chirish imkoniyati yo'q. Ushbu elatlar ham hech qachon o'zlariga tegishli hududning geografik o'rn borasida norozilik kayfiyatida bo'lmaganlar. Xo'sh bu yerda qanday muammo bo'lishi mumkin? Keyingi yillarda Markaziy Osiyoni tadqiq qiluvchi mahalliy va xorijiy markazlar, jurnalistlarda o'tgan asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda o'tkazilgan chegaralash natijasida yo'l qo'yilgan hududiy muammolarga urg'u bermoqdalar.

Ayrim tashqi kuchlar Markaziy Osiyoning Tog'li Badaxshon hududida istiqomat qiluvchi, musulmonlarning mintaqada keng kam tarqalgan guruhi, «ismoiliya» mazhabiga mansub Pomirlik tojiklarni ishga solishga harakat qilmoqdalar. Ularning fikriga ko'ra, aynan hind-evropa qoniga mansub bo'lgan pomirliklar diniy jihatdan yarim shia bo'lganliklari hamda madaniy jihatdan Hindistondagi singxlarga ham yaqin ekanliklari tufayli Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining madaniy jihatdan markaziy nuqtasini tashkil etadilar. Shu nuqtai nazardan bu omil siyosiy maqsadda ham ishga solinishi mumkin. Markaziy Osiyoning tub elatlari yoki ulardan chiqqan olimlarning xayoliga kelmaydigan bunday mavzuning negizida aynan tashqi kuchlarning geosiyosiy maqsadi borligini yaqqol sezish mumkin¹.

Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda ham mahalliychilik omilining o'ziga xos o'rnini kuzatish mumkin. Bu Qozog'istonda juzlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'lsa, Qirg'izistonda shimoliy va janubiy viloyatlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Qozog'istonlik tadqiqotchilarning

¹ Qarang. Dugin A. Osnovi geopolitiki. Arktogeya. Moskva.1997. str. 353-359.

fikricha, juzlar o'rtasidagi ziddiyat mamlakat taraqqiyoti uchun jiddiy zarar etkazuvchi ijtimoiy illatdir. Bu haqda ayniqsa, Qozog'iston va Qirg'iziston OAVda ko'plab miqdorda chiqishlar mavjud. Qirg'izistonda urug'lar o'rtasidagi munosabatlar qirg'izlarning etnik butunligini parchalovchi omil bo'lmasada, bu erdagi etno-madaniy munosabatlar shimoliy viloyatlar va janubiy viloyatlarda yashovchi etnik guruhlar, ya'ni qirg'izlar-o'zbeklar, qirg'izlar-tojiklar, qirg'izlar-qozoqlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Mintaqadagi etnosiyosiy vaziyat geosiyosiy mavqeini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lsada, etakchi davlatlar uchun mintaqaning ahamiyati uning jug'rofiy joylashuvi hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Yangi ming yillik boshlarida Markaziy Osiyo hududida amalga oshirilayotgan geosiyosiy jarayonlar mintaqaviy xavfsizlik masalasiga alohida to'xtalib o'tishni taqozo qiladi. Hududda fundamentalistik mafkurani yoyishga bo'lgan urinishlar, bu illatning, nafaqat bir respublika miqyosida, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasiga xavf solishini anglatdi. Bu vaziyat xavfsizlikning bo'linmaslik tamoyili va uning globallashganlik tabiatini namoyon qildi. 10 yil ichida olib borilgan murakkab siyosiy jarayonlar natijasida, hududda mavjud bo'lgan muammolar ko'lami aniq belgilanib olingan bo'lib, respublikalarni real xavfdan ogoh etish talabi kuchaymokda. Mahalliy tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, bu xavfsirash hayoliy fikrlashlarning natijasi emas. Shu sababli, birinchi o'rinda tashqi kuchlar tomonidan tashkil qilingan ichki xavf o'zining in'ikosini topmoqda.

Mutaxassislar hamda siyosatchilarning ta'kidlashiga ko'ra, ayniqsa, Farg'ona vodiysida har xil ko'rinishga ega bo'lgan ziddiyatlar mavjud. Bugungi kunda, Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishganidan keyingi qisqa geosiyosiy tarixi davomida (Qirg'iziston janubidagi, qo'shni Tojikiston va Afg'onistondagi voqealar) ro'y bergan geosiyosiy jarayonlar, etnosiyosiy va mintaqaviy muammolarning o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi hamda ularni jiddiy baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Markaziy Osiyo bu Evrosiyo mintaqasining markazida joylashgan, keng hududida 50 mln.dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu hudud er yuzidagi etakchi davlatlar hisoblangan Rossiya, Xitoy, Hindiston va Eron bilan chegaradosh. Markaziy Osiyo hududi chegarasining uzunligi 20 ming km. Mintaqaning janubiy qismi geosiyosiy jarayonlar miqiyosida eng murakkab hisoblanib, oxirgi voqealar bu qism nafaqat hududda yoki mintaqada, balki butun jahonda strategik muvozanatni ta'minlashda asosiy rol o'ynashini anglatdi. Hozirgi kunda ham Afg'oniston, ziddiyatlar o'chog'i sifatida qolmoqda va bu shart-sharoit, mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solish imkoniyatini yaratmokda.

Ikkinchi tomondan, mintaqada mavjud bo'lgan tabiiy xom ashyo, qulay jo'g'rofik va iqlimiy shart-sharoitlar, yuksak iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligi, mintaqa transmilliykompaniyalarni yangi bozor sifatida o'ziga jalb qilmokda. Aynan mintaqaning iqtisodiy jozibadorligi, kelajakda uning zaif tomonlarini paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Z. Bjezinskiyning yozishicha, "1993 yildan 2005 yilgacha energiyani iste'mol qilish hajmi dunyoda 50 % ortishi kutilmoqda, bu o'z navbatida yangi manbalarni o'rganish va ekspluatatsiya qilishni talab qiladi". Shu sababli, boy energiya manbalariga ega va etnik masalarda notich bo'lgan mintaq, kelajakda jahon ziddiyatlari maydoniga aylanishi mumkin. Bu bir so'z bilan aytganda, Markaziy Osiyo ko'pgina jihatlar bo'yicha buyuk davlatlar uchun o'zining siyosiy va iqtisodiy qiziqishlarini rivojlantirish uchun juda qulay mintaq hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning etnik o'ziga xosligi, xaqiqatdan ham, chuqur izlanish va e'tiborni talab qiladi. Bu xususiyat mintaqaning etnik xaritasini, siyosiy xaritasi bilan to'g'ri kelmasligidan dalolat beradi. Deyarli hamma chegara oldi hududlarda etnik tub aholi yonma-yon istiqomat qiladi, lekin bu shart-sharoit, ular bir-biriga har xil hududiy da'vo kilish imkoniyatidan foydalanishmaydi degani emas. Masalan,, bu hudud sirasiga Qirg'izistonning janubiy hududlari, Tojikistonning sharqiy va shimoliy tumanlari kiradi. Qozog'istonda aholining salkam 50% qozoq millatiga mansub emas. Bundan tashqari respublikalar orasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demorkatsiya kilish jarayoni to'liqligicha

tugalanmagan. Delimitatsiya jarayonining yakunlash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni xal qilishda asosiy qiyinchilik tog'laradagi erishish qiyin bo'lgan hududlarda chegarani belgilashdir. O'zbekiston va Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston orasidagi hududlarda delimitatsiya jarayoni muvaffaqiyatli yakunlangan. Lekin O'zbekiston bilan Qirg'iziston hamda O'zbekiston va Tojikiston orasidagi tog'li hududlarda davlat chegarasini belgilash jarayonida qiyinchiliklar mavjud. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, bu masalalar tashqi siyosiy, ba'zida esa harbiy-texnikaviy tusga ega bo'lib, tuzilga hukumatlararo komissiyalar yoki qo'mitalar asosida hal qilinmoqda. Shunday ekan, bu masalalar bu qadar dolzarb muammoga aylanmasligi zarur edi. Lekin tashqi kuchlarning bosimi ostida vujudga kelayotgan vaziyat, bu masalaga jiddiy yondashuvni talab kilmoqda. Masalan,ing qo'shni va chet davlatlar matbuoti tomonidan Markaziy Osiyoda o'tgan asrlarda o'z asosini topgan etnik muammolar mavjudligi haqidagi xabar berishlari, masalan,ing jiddiyligidan dalolat beradi. Etnosiyosiy masalalar bilan bog'liq savollarga yakunlorvchi xulosani berish uchun mintaqaning tarixiy etnik xaritasiga e'tibor berishni ta'qazo qiladi.

Jamiyatning turli xil madaniyatga boyligi ko'pmillatlik jamiyatliligidan dalolat beradi, ammo XX asrdagi jahonda olib borilayotgan jarayonlarning rivojlanishi, bu omilni siyosiy qurolga aylantirdi. Bu fenomen ko'pincha o'z geosiyosiy yoki iqtisodiy qiziqishlarini amalaga oshirish maqsadida bosim ko'rsatish yoki etnik polyarizatsiya jaryonini amalga oshirish omili sifatida foydalaniladi. Aynan, polietnik (ko'pmillatli) jamiyatlarda millatlararo karama-karshiliklar zaminida paydo bo'lib, tomonlar bu vaziyatda ziddiyat paydo bo'lishiga qonuniy asos bor deb hisoblashadi. Boshqacha qilib aytganda, bu hududlarda har xil omillar yordamida, ya'ni tarixiy yoki hududiy muammolar zaminida ziddiyatlar paydo bo'lishi kuzatiladi. Bundan kelib chiqadiki, elatlararo totuvlikni saqlash Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Barcha respublikalar ko'pmillatli bo'lib, bu mintaqada asosiy millatlardan tashqari boshqa tub etnos vakillari mavjud. Millatlararo munasabatlar qo'shnichilik va totuvlik asosida mavjud, deb ta'riflash

mumkin, bu albatta respublikalar orasida ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga yaxshi turtki bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo etnoslarining bag'rikengligi respublikalarda etnik ozchiliklar sonining oshishiga qulay sharoit bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchi tomondan, Markaziy Osiyo ko'pmillatli ekanligi vaqt o'tishi bilan madaniy boylik sifatida qabul qilinib, bir mamlakat yoki butun mintaqaning ichki xavfsizligiga o'z o'zidan ta'sir qilmas edi. Ammo XX asr oxirlaridagi geosiyosiy jarayonlarning jadallashuvi buyuk mamlakatlar orasidagi ziddiyatlarga o'zgacha tus berdi. Davlatlar o'rtasidagi bu raqobat siyosiy jarayonlar doirasidan chiqqan holda etnomadaniy omillarni ham siyosiy qurolga aylantirdi.

Demak, mazkur etnomadaniy hodisa tashqi omillarning ta'siri ostida Markaziy Osiyo minitaaqasiga xavf solishi mumkin. Qadimdan o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, qoraqolpoq, hamda uyg'urlar Markaziy Osiyoning tub elati hisoblanib, ularni yagona etnomadaniy va diniy ildiz birlashtirib kelgan. Bu etnik guruhlarining yaqinligi, hayotning har xil jihatlarida o'z in'ikosini topadi. Masalan,, qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq va qisman o'zbeklar nafaqat til masalasida o'xshashligi mavjud, balki bir xil turmush kechirish tarziga ega. Tojiklar fors tillari guruhiga mansub bo'lishiga qaramasdan, diniy jihatdan mintaqadagi boshqa elatlar kabi sunniylar mazhabiga mansub bo'lsa, etnik hamda madaniy nuqtai nazardan o'zbeklarga juda yaqinligi bilan ajralib turadi.

Tarixdan ma'lumki, yuqoridagi elatlar asosida milliy respublikalar tuzilishidan oldin, o'z etnomadaniyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, ajralib turish masalasi mavjud emas edi. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishidan oldin, davlat tuzilish sulolaviy yoki hududiy asosda bo'lingan bo'lib, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva va Toshkent kabi tarixiy markazlarga bog'langan edi. Aholidan qaysi millatga mansubligini so'ralganda diniy mansubligiga qarab musulmon yoki istiqomat qilish joyiga qarab Samarqandlik, Qo'qonlik deya javob qaytarishgan. Etnik guruhlarining joylashuvi davlat boshqaruvida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan. Boshqacha aytganda, etnik xususiyatlar qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa ham, bu faqat hududlarni boshqarish yoki

xodimlarni tanlash va tayinlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Biroq bu xususiyatlar hech qanday holatda bugungi mazmundagi ayirmachilik kayfiyatini tug'dirmagan. Tub aholi tekisliklar, shahar va tog'li hududlarda istiqomat qilishgan. Qozoq, qirg'iz, qorapoq, turkmanlar asosan, tekisliklarda ko'chmanchilik hayot tarzini olib borgan holda yashashgan. O'zbeklar va tojiklarning ayrim qismi Markaziy Osiyo vodiylarida, shaharlari va tog'li hududlarida yashashgan. Qadimgi qirg'izlar asosan, tekislikda bo'lganliklariga qaramasdan, Tyan-Shan tog' etaklarida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi qabilalardan iborat bo'lgan.

Ma'lumki, barcha etnosiyosiy va hududiy muammolar (o'tgan asrning 20-yillarida) Sherbin ekspeditsiyasidan so'ng, ya'ni milliy respublikalarni tashkil qilishdan so'ng vujud kelgan. Hozirgi etnik va siyosiy xaritalarning nomuvofiqligining sababini anglash uchun tub elatlarning tarixiy joylashuviga e'tibor berish zarur. Dunyoda 1600 oshiq etnik guruhlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ulardan 300 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega. Bu etnik guruhlarining asosiy ko'pchiligi o'z davlatlariga ega emas. Ular ma'lum bir davlat hududida yashovchi etnik ozchilik hisoblanadi. Chegara oldi hududlarida har xil etnik guruhlarining aralash istiqomat qilishi rad qilib bo'lmaydigan masaladir. Ko'pchilik uchun bu hudud tarix davomida yashab kelgan ona vatani bo'lishiga qaramasdan o'tgan asrda o'tkazilgan delimitatsiya natijasida siyosiy nuqtai nazardan o'z tarixiy vatani yuridik chegarasidan tashqarida qolib ketgan. Masalan, Xo'jand yoki O'shlik o'zbeklar tarix davomida o'sha hududda istiqomat qilishgan bo'lsada, sho'rolarning chegalalar tortishi oqibatida etnik ozchilik guruhiga kiritilishiga sabab bo'lgan. Bu omil esa Markaziy Osiyoda etnosiyosiy muammoni qo'zg'ash uchun eng yaxshi etakchilardan biri hisoblanadi.

Mintaqadagi etno-hududiy vaziyatni chuqur tahlil qilish natijasida, bugungi kundagi etnoslarning joylashuvi aslida hududlarning tarixiy rivojlanishi asosida vujudga kelganidan dalolat beradi. Markaziy Osiyoda etno-hududiy masala o'z-o'zidan notinchlikka olib kelishi mumkin emas. Yuqorida ta'kidlanganidek etnohududiy muammolarning paydo bo'lishining asosiy sababi, Markaziy Osiyo

davlatlarini sun'iy chegaralashdan kelib chiqqan. Barcha etnik guruhlar qadimdan tarixiy erlarida yashab kelgan bo'lib, bu shart-sharoit hududning tabiiy, tarixiy etno-xaritasini namoyon qilgan. Tub aholining madaniyati va xo'jalikni yuritish usulari yuz yillar davomida hududlarning tabiiy-iqlimi sharoitidan kelib chiqqan holda vujudga kelgan. Ko'chmanchi hayot tarzi va unga bog'liq bo'lgan xo'jalikni yuritish usullari, asosan, tekislikda va tog' oldi tekisliklarida yashovchi shimoliy xalqlariga mansub bo'lib shaharlarda yashash esa, bu hududning vodiy qismida yashovchi xalqqa mansub bo'lgan. Ularning iqtisodi, hayot tarzi va madaniyati yukoridagi faktorlar asosida shakllangan. Shunday qilib, o'tgan asrning 20-yillarida milliy davlatlarga bo'lish boshlanmasidan oldin, bu mintaqada hududlarga bo'lish masalasi mavjud emas edi.

Etnik xaritaga bog'liq bo'lgan masalalar siyosiy tusga ega bo'lib, tashqi kuch manbalari asosida vujudga kelgan. Masalan,, Markaziy Osiyo etnik ziddiyatlar makoni yoki Bolqon hududi bilan taqqoslanganidan so'ng, albatta kuzatuvchi, o'quvchi yoki jurnalistlarda oldindan nafaqat etnik majoralarni axtarishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi, balki mintaqaning notinchligi haqida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Etnik ozchilik etnoslarning asosiy qismi, asosan, O'zbekiston respublikasining chegara oldi hududlarida istiqomat qilishadi. Bizga ma'lumki, etnik ozchilik bu o'z davlatlariga nom bergan asosiy millatdan farqli o'laroq ozchilikni Tashkil qiladigan millatga aytiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, etnik ozchilik millatlarining asosiy qismi asosiy millatga mansub bo'lmasligi mumkin, lekin bu hududning tub aholisi sifatida tanilishi mumkin. Bu shart-sharoit bir necha davlatlarning tarixiy va madaniy bog'liqligidan kelib chiqadi. Markaziy Osiyo bilan bog'liq shart-sharotda esa, bir-birining hududlarida istiqomat qiluvchi mahalliy elatlar vakillari etnik ozchilik sifatida talqin qilinishi mumkin. Albatta, respublikamizning chegara oldi hududlarida yashovchi asosiy milliy kamchilik vakillari AQSHdagi kabi diasporalardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganda, respublikamizning chegara hududlarida yashovchi etnik ozchilik vakillari ko'chmanchi xalq bo'lmasdan, shu erning tub aholisi hisoblanandi. Markaziy

Osiyoning etnik ozchilik vakillarining ko'pchiligi tarixiy vatanlari bilan chegaradosh hududlarda istiqomat qilishadi. Masalan,, etnik o'zbeklar Markaziy Osiyoning O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan tumanlarida istiqomat qilishadi. Shunga o'xshab O'zbekistonlik qozoqlar, Tojikistonlik o'zbeklar, qirg'izistonlik tojiklar ham o'z tarixiy vatanlariga yaqin hududlarda istiqomat qilishadi. Hozirgi davrda hududdagi elatlararo munosabatlarda tub bo'lmagan aholini to'liq ma'noda etnik ozchilik sifatida talqin qilish to'g'ri bo'lmasa kerak. Markaziy Osiyo asosiy millatlarning tabiatini butunlay yoritmaydi.

Birinchidan, Markaziy Osiyodagi milliy kamchilikning faqat bu mintaqaga xos shart-sharoit ekanligi kelib chiqdi. Bu kabi xoslik etnik guruhlarining o'z tarixiy vatanlariga yaqin hududlarida geografik joylashuvidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, chegaralarning ochiqligi etnik guruhlarining o'z qon-qarindoshlari bilan yaqin munosabatda bo'lishga yordam bergan, bu bilan avtomatik tarzda davlat chegarasi degan tushunchani ikkinchi darajali masalaga aylangan.

Uchinchidan, barcha elatlar bir-biriga o'xshash va chegaralarni kesib o'tadigan iqtisodiy, madaniy, tarixiy va turmush tarzi kabi elementlar mavjud. Bu shart-sharoit tub millat bo'lmagan xalq vakillariga shu hududning jamiyat birdamligidan yiroqlashmasligiga yordam beradi. Ijtimoiy birdamlik Markaziy Osiyo kabi ko'pmillatli hududlar uchun juda katta ahamiyatga egadir, chunki asosiy maromlar bo'lgan to'y, hashar, janozalar millatidan qat'iyan hamjihatlikda o'tkazilgan. Bu kabi shart-sharoitlar chegara oldi elatlarini birlashishiga va hamjihat bo'lishiga yordam beradi. Bu vaziyatni o'zbek, turkman, qozoq, tojik va qirg'izlar birgalikda istiqomat qilayotgan tumanlarda kuzatish mumkin. Aynan elatlar orasidagi bir-biriga bo'lgan ruhiy moyillik va bag'rikenglik, xalqlarimizning etnik g'ururini toptalmasligiga yordam beradi. Bu jaryonda nafaqat etnik o'zligini saqlanishi, balki elatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvini kuzatish mumkin. Albatta, avvalo bu elatlarning tiynati, madaniyati, tarixi, geografik va iqtisodiy asoslarining umummiyligidan kelib chiqadi. Mana bu elementlar etnik ozchilik tushunchasi Markaziy Osiyoda nisbiy xarakterga ega

ekanligini ifodalaydi. Yuqoridagi bayon qilinganlar asosida mintaqaviy etnosiyosiy barqarorlik borasida tegishli xulosalar yasash mumkin.

Chegara oldi hududlarida elatlarning aralash yashashlari elatlararo vaziyatning murakkab ekanligini belgilab beradi. Vaqti-vaqti bilan etnohududiy mazmundagi muammolarning paydo bo'lishi, asosan, tashqi kuchlar ta'sirida ro'y berib, ular asosan, mintaqaga ta'sir etuvchi ba'zi davlatlarning taktikasi va strategiyasi o'zgarishi davrida dolzarb masalaga aylanadi. Bu esa etno-siyosiy mavzuning hamisha dolzarb ekanligini namoyon etadi va albatta respublikalar o'rtasidagi munasobatlarda o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash uchun respublikalar quyidagi shartlarga rioya qilishlari shart:

- birinchidan, tashqi kuchlarga chegaraoldi hududlarda mavjud ko'p etnik omilni foydalanishka yo'l qo'ymaslik;

- ikkinchidan, jamiyatning polietnik jihatlaridan kelib chiqqan holda o'z milliy dasturlarini olib borishlari va uning tamoyillarini informatsion ta'minlashlari zarur;

- uchinchidan, millatchilikni targ'ib qiluvchi omillardan o'z fuqarolarini himoyalash;

- to'rtinchidan, etnik va hududiy barqarorlikka olib keladigan shart-shroit, ya'ni davlat chegaralarining delimitatsiya jaryonini yakunlash zarur;

- beshinchidan, etnikaro munosabatlarni saqlashga yordam beradigan, engillashtirilgan variantli chegaradan o'tish tartibini ta'minlash zarur;

- oltinchidan, transportlarning tranzit o'tish xavfsizligini ta'minlash

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish jarayonida, bozor iqtisodiyoti munosabatiga o'tish davrida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, aniq bir kuchlarga mintaqadagi vaziyatni notinch holatga keltirishga yordam berishi mumkin. Bu urinishlar turli xil etnik guruhlar orasiga kelishmovchilikni singdirish asosida amalga oshirili mumkin. Masalan,, chet el muallif kitoblarida nashr qillanayotgan tarixiy faktlarni o'zgartirish, madaniyat tarixining rivojlanishi va hozirgi siyosiy voqealar noto'g'ri talqin qilinish, o'z aksini topmoqda. Asosiy

millatlarning millatlararo munasabotlarda har tomonlama o'ylab ko'rilgan barqarorlikka erishish maqsadi, hamda yuqori eslab o'tilgan bag'rikenglik saviyasi elatlararo barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda.

2.2.Mintaqadagi milliy munosabatlar tizimida etnosiyosiy - ijtimoiy ziddiyatlar va ularning yechimlari

Markaziy Osiyo respublikalari etnik taqdirning umumiyligi, hududning mushtarakligi, yagona islom madaniyatiga mansubliklari hamda etnik mentalitetning yaxlitligi bois asrlar davomida tinch-totuv va yaxshi qo'shnichilik ruhida yashab, ushbu etnomadaniy, savdo-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar xalqlarimiz orasida qon-qarindoshlik munosabatlarini ham rivojlantirmoqda. Bu esa o'z navbatida mintaqada o'zaro hamjihatlik rivojini ta'minlashda, mintaq aholisi orasida munosabatlarning ijobiy bosqichga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Empirik materiallarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'ralgan o'zbekistonlik respondentlarning 37,1%, tojikistonlik respondentlarning 42,9%, qirg'izistonlik respondentlarning 48,8%, qozog'istonlik respondentlarning 19,5% Markaziy Osiyo davlatlari hududida o'zlarining yaqin qarindoshlariga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Ayni mana shu miqdordan O'zbekiston aholisining 39,7% Tojikistonda, 45,5% Qirg'izistonda, 11,2 % Qozoqistonda hamda 3,6% Turkmanistonda o'zlarining yaqin qarindoshlari yashayotganliklarini tasdiqlashgan. Tojikistonlik respondentlarning 78,3% O'zbekistonda, 13,7% Qirg'izistonda, 9,9% Qozoqistonda o'z qarindoshlariga ega ekanligini, Qirg'izistonlik respondentlarning 32,0% O'zbekistonda, 8,1% Tojikistonda qolganlari Qozoqiston va Turkmanistonda o'zlarining yaqin qarindoshlariga, Qozoqistonlik respondentlarning 11,9% O'zbekistonda, 3,4% Tojikistonda qolgan miqdor esa Qirg'iziston bilan Turkmanistonda o'zlarining yaqin qarindoshlari yashashlarini tasdiqlashganlar.¹ Bunday empirik ma'lumotlar Markaziy Osiyo xalqlari orasida qon-qarindoshlik aloqalarining juda ham mustahkamligidan dalolat

¹ Qarang: Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. - T.2005.

berib, bizning oldimizga chegara hududlarda ham etnomadaniy, savdo-iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning holatini o'rganish zaruriyatini qo'yib, ushbu jarayonlar mintaqada millatlararo hamkorlik rivoji hamda etnik barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mavjud munosabatlarning yanada ijobiy jihatlarini ta'minlash yo'l-yo'riqlari va tavsiyalarni berishni talab etadi. Markaziy Osiyo davlatlari aholisi orasida qon-qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash davlatlararo munosabatlarda ham o'z ifodasini topmoqdaki, bu mintaqada siyosiy, iqtisodiy va etnoijtimoiy hamjihatlikka intilayotgan mintaq xalqlarining manfaatiga to'liq mosdir. O'zbekiston va Tojikiston, O'zbekiston va Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari orasidagi abadiy do'stlik va hamkorlik haqidagi kelishuvlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan munosabatlarga soya solayotgan ba'zi muammolarning yechimi yo'lida O'zbekiston va Turkmaniston davlat boshliqlarining 2004 yilning noyabrida Buxoro shahridagi rasmiy uchrashuvlari munosabatlarning ijobiy ahamiyat kasb etishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi SHartnomaning, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida chegarabo'yi viloyatlari hududida joylashgan xo'jalik ob'ektlarida xizmat qiluvchi shaxslar tomonidan o'zbek-turkman chegarasini kesib o'tish to'g'risida Bitimning, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida fuqarolarning o'zaro qatnovlari va chegarabo'yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga engillashtirilgan qatnov tartibi to'g'risida Bitimning va yana har ikki tomon aholisi manfaatlarini ifodalovchi qator hujjatlarning imzolanishi davlatlararo munosabatlarning yanada ijobiy tus olayotganligidan dalolatdir.

Milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir davlat o'z milliy chegaralarini mustahkamlashi, u yerlarda yashayotgan aholining tinch va osoyishta turmushini ta'minlash xalqaro ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, eng dolzarb va etnosiyosiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Ayni shu maqsadda O'zbekiston ham milliy mustaqillikka erishgach, o'z

chegaralarini mustahkamlashga e'tibor bera boshladi. Aytish lozimki, chegaraning mustahkamlanishi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy mavqega ega bo'lib, strategik ahamiyat kasb etadi.

Chunki, O'zbekistonning mustaqilligi va uning huquqiy, demokratik jamiyat qurayotganligini ko'ra olmagan ba'zi jinoyatchi to'dalarning xorijiy davlatlardagi ekstremistik xarakterdagi yovuz niyatli homiylarining sarmoyalari evaziga uyushtiradigan qurolli xurujlaridan saqlab, o'tish davrida aholini kuchli ijtimoiy himoya bilan bir qatorda, kuchli siyosiy himoyasini ta'minlashdan iborat edi. Ma'lumki, mustaqillik yillarida Qirg'iziston va Tojikiston hududlaridan bir guruh jangarilarning kirib olib, O'zbekiston hududiga o'tishga intilishlari nafaqat Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyati aholisini, shu bilan birga butun mamlakatimiz xalqini ham qattiq tashvishga solgan edi. Bu o'rinda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Andijon viloyati saylovchilari vakillari bilan 1999 yil 17 dekabrda uchrashuvida aytgan quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir. "Ma'lumki, Andijon viloyati mamlakatimizning chegara hududi bo'lib, bu erdan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar, muhim kommunikatsiya tarmoqlari o'tadi. Shu vaqtgacha bu tog'lardan vodiya faqat ezgu niyatdagi odamlar o'tib kelgan. Afsuski, keyingi vaqtda ozodligimiz, tinchligimiz va osoyishtaligimizga rahna solishga urinayotgan qabih kuchlar paydo bo'lgani hammamizni tashvishlantiradi".¹ Shu bilan birgalikda o'tish davrining tabiiy qiyinchiliklari sharoitida chegara viloyatlarda qator muammolar yig'ilib qolganligi hech kimga sir emas. Ma'lumki, davlatlararo chegaralar azaldan xalqlar o'rtasida tinch-totuvlik va yaxshi qo'shnichilikning rivoji uchun xizmat qilib, mintaqada etnoijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Bu tasdiq O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari Prezidentlarining 2001-yil 27-dekabrda qo'shma bayonotida ham o'z ifodasini topib, jumladan shunday deyiladi: «... ikki davlat o'rtasidagi chegaralar ikki davlatning birodar xalqlarini birlashtiruvchi tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik chegarasi bo'lgan va shunday bo'lib qolishi lozim». Demak, chegaralar o'zaro munosabatlarning rivojida ijobiy ahamiyat kasb

¹ Xalq so'zi gazetasi 1999 yil 19-dekabr.

etib, milliy munosabatlar rivojida muhim o‘rin tutishi talab etiladi. Ayni paytda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuzatilayotgan ekan Markaziy Osiyo davlatlari ham global hamkorlikka tayyorgarlik sifatida o‘zaro yaqinlashib, harbiy-texnikaviy jihatdan hamkorlikni rivojlantirish yo‘lida qator ishlar qilmoqdalar. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 2001-yilning 28-dekabrida O‘zbekiston rahbariyatining tashabbusi bilan O‘zbekiston, Qozoqiston, Qirg‘iziston va Tojikiston Prezidentlari ishtirokida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatining Toshkent sammiti bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu sammitda bu tashkilot «Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti»ga aylantirilib, o‘zaro globallasuv jarayonida funksiyasi ham tabiiy ravishda kengaytirildi. Xuddi mana shu bugungi globallasuv jarayonida O‘zbekistonda etnosiyosiy jarayonlarni tahlil etishda ijtimoiy taraqqiyotga u yoki bu tarzda ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish maqsadida migratsion holatni kuzatish zaruriy ahamiyatga egadir.

Etnik qarama-qarshiliklar jamiyat hayotidagi asosiy muammolardan biridir. Yuzlab yillardan buyon munozarali bo‘lib kelgan ushbu muammo bugunga kelib, aktual mazmun kasb etdi. Har qanday jamiyat, har qanday davlatning taraqqiyoti ushbu muammoning ijobiy hal qilinishiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Sotsialistik jamiyatning ham tanazzulga yuz tutishi ayrim rahbarlarning millatlararo munosabatlarga panja ortidan qarash, ushbu masalada paydo bo‘layotgan muammolarni ko‘r-ko‘rona hal etish, u yoki bu millat hamda elatlarni turli bahonalar bilan sirli ta’qib ostiga olish natijasida yuz bera boshladi.

Ma’lumki, O‘zbekistonning buyuk kelajagi uchun olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy islohotlarda ijtimoiy vaziyatning tinch va barqaror bo‘lishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mamlakatda ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir etuvchi omil sifatida qo‘shni respublikalar bilan chegaradosh hududlarda ijtimoiy muammolarni o‘rganib, mavjud konfliktogen nuqtalarning oldini olish hamda aholining o‘zaro iqtisodiy-madaniy munosabatlarini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan empirik tadqiqotlardan maqsad chegaradosh mamlakatlarga qo'shni bo'lgan tuman va shahar, qishloq, mahallalarda yashovchi aholining ijtimoiy muhofazasi, ijtimoiy vaziyatning umumiy holati, millatlararo munosabatlar ahvolini chuqur tahlil etishdan iborat edi. Shu maqsadda hudud aholisining ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'l- yo'riqlari o'rganildi. Farg'ona vodiysi hududida qo'shni mamlakatlar bilan 20 ga yaqin chegaradosh tuman va shaharlar mavjud bo'lib, bu tuman va shaharlarda xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan paxta, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik mahsulotlari etishtiriladi. Shunday ekan, ushbu hududlarda yashovchi aholining osoyishta yashashlari, chegaraning tinch bo'lishi O'zbekiston Respublikasining strategik istiqbolini belgilaydi. Farg'ona vodiysidagi viloyatlar, tuman, shahar, qishloq va mahallalarda yashovchi aholining tinch hamda barqaror yashashlarida bevosita O'zbekiston Prezidentining roli g'oyat katta bo'lib, qo'shni mamlakatlar rahbarlari bilan olib borayotgan oqilona, do'stona siyosatining samarasidir.

Chegaradosh hududlarda ijtimoiy vaziyatning holatini ko'rsatuvchi omillardan biri chegaradosh yerlar masalasi bo'yicha har ikkala tomondan yashovchi aholi yoki mamlakatlar orasidagi siyosiy konsensusning qay darajada ekanligidir. Shu vaziyatni aniqlash maqsadida ekspertlarga "Tumaningizda, shahringizda, shahar posyolkangizda, qishloq kengashingizda, mahallangizda chegaradosh erlar to'g'risida tortishuvlar mavjudmi?" degan savol berildi. Ushbu savolga Andijon viloyatida 73,6%, Namangan viloyatida 91,5%, Farg'ona viloyatida 78,6% kishi yer to'g'risida bunday tortishuvlarning mavjud emasligini bayon etishgan. Shu bilan birga Andijon viloyatida 15,1% ekspertlar, Namangan viloyatida 5,1%, Farg'ona viloyatida 14,3% ekspertlar chegaradosh erlar to'g'risida tortishuvlar bor, deb javob qilganlar. Farg'ona vodiysi bo'yicha suhbatda qatnashgan 7,1% ekspert respondentlar esa bu masalada biror narsa aytishi qiyinligini ma'lum qilganlar. Chegaradosh hududlarda yer to'g'risida bo'ladigan tortishuvlar aniqroq qaysi masalalarda paydo bo'layotganligini bilish uchun berilgan savolga vodiylar bo'yicha so'rovnomada qatnashgan kishilardan 5,3%

respondentlar asosan chegara bo‘ylab yastangan bo‘sh joylarni egallab ekin ekish borasida, 15,8% respondentlar chegaradosh tumanlardagi ekin ekiladigan joylar masalasida, 5,3% esa sobiq totalitar tuzum sharoitida qo‘shni respublikaning chegarasi bilan tutashgan hududida qurilgan uylarni xususiylashtirib olish masalasi hal bo‘lmaganligida, 15,8% respondentlar esa ikki davlat o‘rtasida chegarani belgilash davrida narigi tomonda qurilib qolgan uylar masalasida tortishuvlarning mavjudligi haqida fikr bildirganlar.¹

Tadqiqot davomida respondent-ekspertlarga o‘zlari yashayotgan hududlarda suv to‘g‘risida chegaradosh qo‘shnilar bilan tortishuvlar bo‘lish- bo‘lmasligi haqida savol berildi. Ushbu savolga olingan javoblar shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona vodiysidagi chegaradosh hududlarda suv masalasidagi tortishuvlar ko‘proq Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelar ekan. Chunki Andijon viloyatidagi chegaradosh tuman, shahar, qishloq, mahallalarda suv to‘g‘risida tortishuvlar mavjud deb 15,1%, Namangan viloyatida 20,3% ekspertlar javob bergan bo‘lsalar, Farg‘ona viloyatida 50% ekspertlar suv to‘g‘risida tortishuvlar mavjud deb, Farg‘ona viloyatida bu tortishuvlarni turli sabablar asosida paydo bo‘layotganligini ta’kidlashganlar. Masalan, 28,6% kontingent yozgi davrlarda chegaraning narigi tomonidan kelayotgan suvning kamayishi, 53,6% kishilar esa suvning etishmasligi natijasida ekinlarning qurib qolishi sabab bo‘layotganligini aytishgan, 50,0% respondentlar esa Qirg‘iziston tomonidagilar yoz paytida ataylab suvni o‘tkazmay qo‘yishi sabab deb ko‘rsatganlar. 7,1% ekspertlarning fikriga qaraganda bunga daryo va suv omborlarida suvning kamayishi sababdir.

Shuni alohida ko‘rsatish kerakki, chegaradosh tumanlarda millatlararo munosabatni 90% dan ziyod ekspertlar “Yaxshi” deb baholaydilar. Birorta ham kishi bu to‘g‘risida salbiy fikr aytmagan.

Chegara muammolarni hal etishda esa xalq diplomatiyasidan keng foydalanish, qo‘shni chegaradosh hudud mahalliy hokimiyat vakillarining o‘zaro

¹ Qarang: Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. - T.2005.

munosabatlarini yaxshilab borishlarini rag'batlantirish, shu masalani o'rganish bo'yicha jamoat va ayrim nodavlat tashkilotlarning imkoniyatlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bu tadbirlar mavjud ijtimoiy va chegara muammolarini xalqaro munosabat, xalqaro huquq normasi talablari darajasida hal etish uchun davlatlararo kelishuvga erishish katta ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi empirik ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining olib borayotgan milliy siyosati va qo'shni davlatlar bilan olib borilayotgan hartomonlama hamkorlik va o'zaro qo'shnichilikka asoslangan siyosati natijasida Farg'ona vodiysining qo'shni davlatlar bilan chegaradosh hududlarida ijtimoiy vaziyat barqarordir. Bunday tinchlik va barqarorlikni so'rovda qatnashgan ekspertlarning aksariyati (94,0%) ta'kidlab, ushbu osoyishtalik, barqarorlikni davlatimiz tomonidan olib borilayotgan to'g'ri siyosat natijasi deb hisoblaydilar. 71,0% ekspertlar Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona milliy siyosat xalqning tinch yashashida namoyon bo'layotganligini e'tirof etishganlar.

2. Qo'shni Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh tuman, shahar, qishloqlarda er muammolari deyarli sezilarli emas. Chunki, so'rovnomada qatnashgan ekspertlarning 73,6% o'zlarining javoblarida chegaradosh erlar to'g'risida tortishuvlar yo'qligini ta'kidlashgan. 15,4% respondentlar fikrlariga qaraganda chegaradosh erlardagi tortishuvlar kundalik turmush darajasida asosan suv masalasida, chegara bo'ylab yastangan bo'sh erlarni egallab ekin ekish borasida paydo bo'lmoqda. Shunday bo'lsada, ushbu muammo ham jiddiy e'tiborni talabetadi.

3. Vodiyning chegaradosh tumanlaridagi mahalliy hokimiyatning Qirg'iziston va Tojikiston davlatlaridagi chegaradosh mahalliy hokimiyatlar bilan aloqalari yaxshi o'rnatilgan. Mahalliy hokimiyat vakillari bilan o'zaro uchrashuvlar bo'lib turadi. Turli bayram, tantanalarga ular bir-birlarini taklif etib turishadi. Bu haqda 90,0%ga yaqin kishi o'z fikrini bildirganlar. Bunday tadbirlar O'zbekiston, Tojikiston va

Qirg'iziston davlatlari o'rtasida do'stlikning yanada mustahkam bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday do'stlik nafaqat qo'shni mahalliy hokimiyatlar o'rtasida, balki chegaradosh hududlarda yashaydigan aholi o'rtasida ham mavjuddir. Bu haqda so'rovnomada qatnashganlardan 91,4% kishi shunday ijobiy fikr bildirishgan. Bu an'anani bundan buyon ham rivojlantirish lozim.

4. Chegaradosh tumanlarda yashovchi turli millat vakillari viloyat va tuman hokimiyatlari tomonidan alohida e'tiborga olinib, ushbu hududlarda yashovchi millat vakillari farzandlarining ona tilida o'qishlari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Bu maktablar 70,1% ekspertlar javoblariga ko'ra, ushbu hududlarda yashovchi boshqa millat vakillari uchun etarli, 17,5% kishining fikriga qaraganda etarli emas.

5. Qo'shni Respublikalar bilan chegaradosh tuman, shahar, qishloqlarda er muammolari, shuningdek, chegaradosh erlar to'g'risida jiddiy tortishuvlar yo'qligini ekspertlarning 81,5% qayd etishgan. Lekin ayrim ekspertlarning fikrlariga qaraganda chegaradosh erlardagi tortishuvlar asosan suv masalasida, chegara bo'ylab yastangan bo'sh erlarga ekin ekish borasida paydo bo'lmoqdaki, bu jihat ham muayyan e'tiborni talab etadi;

6. Chegaradosh tuman, shahar, qishloq va mahallalarda yashovchi aholining millatlararo nikohlar masalasida fikrlari ijobiydir. Bunday fikrni 80,4% ekspertlar bildirishgan. Olingan ma'lumotlarga qaraganda o'zbek va qirg'iz, o'zbek va tatar, o'zbek va tojik, tojik va qirg'iz, o'zbek va turk, qirg'iz va turk millatlari o'rtasida nikohlar mavjud va ular ahil oila bo'lib yashamoqdalar. Ekspertlar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra o'zbek qizlarini boshqa millat vakillariga turmushga chiqishlariga nisbatan o'zbek yigitlari orasida boshqa millat vakillari qizlariga uylanishlari yuqori ekan.

Yuqoridagi ijobiy holatlar va ko'rsatkichlar bilan birga quyidagi ayrim muammolar ham mavjudligini tasdiqlamoqda:

1. So'rovnomada ishtirok etgan ekspertlar chegara postlaridagi xizmatda turgan organ xodimlarining chegaradan o'tayotgan kishilar bilan muomalasini qo'pol deb

baholaydilar. Shu bilan birga ularning ba'zilarini ta'magir va poraxo'r deb ko'rsatadilar;

2. Chegaradosh tuman qishloqlarda yashovchi aholi yoz mavsumida suv muammosining vujudga kelishi natijasida bu borada tortishuvlarga duch kelishini aytganlar. Ba'zilar chegaraning u tomoniga (asosan Qirg'izistonga) sotish uchun olib boradigan mahsulotlarni chegaradan o'tayotgandagi tekshiruvlardan qiynalishlarini ta'kidlaganlar;

3. Chegaradosh tuman qishloqlaridagi aholining ma'lum qismi qo'shni davlatlardan ijaraga er olib, dehqonchilik qiladilar. Bu haqda 47,9% so'rovnomada qatnashgan kishilar ma'lumot berishgan. Lekin erna ijaraga olgan bunday kishilar turli muammolarga duch keladilar. Bu muammolar asosan ekin ekan erlarga suv etishmaslikda, ayniqsa, etishtirilgan hosilni chegaradan o'tkazib uyga olib kelishda ko'proq sodir bo'ladi. Bu holat Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan barcha tumanlarga xosdir;

4. Farg'ona vodiysidagi qo'shni chegaradosh hududlarda yashovchi aholining qarindosh-urug'lari uzoq yillardan buyon qo'shni davlatlarning chegaradosh hududlarida yashaydilar. Bular haqida 80,0% dan ziyod ekspertlar ma'lumot beradilar. Lekin, ana shu qarindosh-urug'larini ko'rgani yoki to'y-tomosha, ma'rakalariga borish maqsadida chegaradan o'tishda pasportga muhr qo'yish, xohlagan paytda chegaradan erkin o'tib bo'lmasligi, chegara postlaridagi xodimlar orasida ta'magirlik mavjudligi va boshqa qiyinchiliklar ko'rsatilgan;

5. Chegaradosh tuman, qishloqlardagi eng muhim va dolzarb muammolar – ishsizlikdir. Aholi, ayniqsa yoshlar uchun yangi ish joylarini tashkil etish masalasiga alohida e'tibor berish talab etiladi;

6. Qirg'iziston va Tojikistonning chegaradosh tumanlaridan vodiya kelin bo'lib yoki ko'chib kelib 5-10 yil yashayotganligiga qaramay fuqarolik pasporti qaydga olinmayotganligi, Namangan viloyatining Pop tumanida ham shunday holatlar ko'zga tashlanayotganligini bilish mumkin. Tojikistondan 1982 yilda kelin bo'lib tushgan bir ayol, e'tiborsizlik sabab, o'sha davrda qayddan o'tmaganligi sababli

fuqaro emas, o'g'li 17 yoshga kirib, O'zbekiston fuqarosi, onasi esa hamon hisobga olinmagan.

7. Xo'jaobod va O'sh shahri orasidagi chegara posti yonidagi O'zbekiston hududida bozor tashkil etilmayotganligi hamda chegaradosh hududlarda qo'shni millat tilida amal qilayotgan maktablarni ona tilidagi darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlanmayotganligi ana shunday muammolar tizimidandir.

Ushbu muammolarni quyidagi yo'llar orqali hal etish mumkin:

- Yoshlar orasida ma'naviy ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish. Ular orasida ko'proq terrorizm, narkomaniya, aqidaparastlikning salbiy oqibatlari haqida suhbatlar o'tkazib turish;
- Chegaradosh tumanlardagi aholini ish bilan ta'minlash maqsadida shu hududda yangi ish joylari uchun qo'shma korxonalar ochish, kichik korxonalarni kengaytirish va zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash;
- Viloyatlarda chegaradagi tuman, qishloq aholisi uchun maishiy xizmatni yaxshilash;
- Mintaqa xalqlarining tarixiy, abadiy do'stligini tarannum etuvchi, etnotarixiy ildizlarimizning umumiylikni ifoda etuvchi targ'ibot ishlarini kengaytirishlar talab etiladi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari miqyosida hal etilishi mumkin bo'lgan muammolar:

1. Chegaradosh hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan chegara postlarida chegaradosh hududlarda qo'shni davlat hududiga har kuni qatnab ishlaydigan kishilarning chegaradan o'tib qaytishlarida engillik va qulayliklar yaratish yo'llarini topish va tegishli tadbirlar ishlab chiqish. Chegaradan o'tayotganda pasportga pechat qo'yishning engilroq chorasini qilish. Chunki, tadqiqot natijasida Andijon viloyatining Xo'jaobod, Jalolquduq, Qorasuv, Xonobod shaharlari va tumanlari, ba'zi boshqa chegaradosh tuman, shaharlardan, qishloqlardan Qirg'izistonga har kuni o'tib uzoq yillardan buyon ishlab kelayotgan ayrim mutaxassis, ishchi, dehqon va fermerlar borligi aniqlandi. Ularning har kuni pasportiga pechat bosish

o'rniga boshqa chora topish, ya'ni chegaradan o'tib qaytishda imtiyozlar yaratish lozimligi;

2. Chegara postlari xizmatchilarining chegaradan o'tayotgan kishilarga nisbatan qo'pollik qilib, yomon muomalada bo'lishliklarini, bu erda hatto tovlamachilik va poraxo'rlik ham sodir etilayotganligi haqidagi ma'lumotlarni inobatga olib bunday salbiy holatlarni yo'qotish choralari ko'rishning zaruriyligi;

3. Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalaridan O'zbekiston Respublikasiga kelin bo'lib tushib yoki ko'chib kelib 5-10 yil yashayotgan kishilar haligacha – masalan, vodiyning Xo'jaobod qishloq kengashida Qirg'izistonning O'sh viloyatidan kelin bo'lib tushgan 11 nafar ayol haligacha qaydga olinmagan. Shu tufayli ularning farzandlarini maktabga o'qishga borishlarida ham, ishga joylashishlarida ham doimiy qaydda bo'lmaganligi sababli ba'zi muammolar paydo bo'layapti. Bu haqda chegaradosh hududlarda – Qorasuv va Jalolquduq tumanlarida yashaydigan ekspertlar ta'kidlashganlar. Bunday holat vodiyning boshqa viloyatlarida ham uchrayotganligi sababli, bu borada jiddiy choralar ko'rish kerakligi;

4. O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi vazirligi chegaradosh hududlarda joylashgan boshqa tildagi umumta'lim maktablarini darsliklar, qo'llanmalar bilan ta'minlashni o'rganib chiqishi lozim. Chunki, vodiylarida o'tkazilgan so'rovlarda qatnashgan kishilar bu maktablarni ona tilidagi darsliklar bilan etarli darajada ta'minlanmaganligini ta'kidlashganlar;

5. Qirg'iziston hududidan oqib keladigan suv masalasini ham hal etish dolzarb muammo. Ekinlarning ko'p qismi yoz paytlarida suvning kelmay qolishi sababli qurib qolayotganligi;

6. Chegaradosh hududlarda foydalanilmay yotgan bo'sh erlar haqida Nizom yoki boshqa huquqiy hujjatlar ishlab chiqish lozim. Chunki shu masalada ham chegaradosh hududlarda yashovchi aholi orasida ma'lum darajada tortishuvlar paydo bo'layotganligi;

7. Respublikaning fan, san'at va madaniyat xodimlarini Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi, milliy jamoat birlashmalari va Milliy Madaniy Markazlar va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillarining chegaradosh hududlarda yashovchi

aholi bilan tez-tez uchrashtirib Respublikamizda olib borilayotgan o'zgarishlar va davlatimiz tomonidan olib borilayotgan milliy siyosat haqida targ'ibot ishlari olib borish lozimligi;

8. Chegaradosh hududlarda yashovchi yoshlar orasida Hizbu tahrir, aqidaparastlik va terrorizmning salbiy oqibatlari haqida muntazam suhbatlar o'tkazib turish kerakligi;

9. Vodiyni suv bilan ta'minlaydigan chegaradosh bo'lgan Xonobod shahridagi suv ombori zaxiralaridan samarali foydalanish maqsadida qo'shni davlat bilan aloqani yanada mustahkamlab aholi o'rtasida do'stlik, birodarlik tuyg'ularini tobora rivojlantirib borish lozimligi;

10. Chegaradosh hududlarda joylashgan chegara postlarida xizmat qiladigan xodimlar, askarlarning ziyrakligini oshirib, ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor berish buyuk maqsad sari intilayotgan O'zbekistonning etnoijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashi;

11. Vodiyning Nanay, Mamay, Zarkent qishloqlari atrofidagi tog'liklar Qirg'izistonga tegishli bo'lib, vodiylilik aholining chorva mollarini shu tog'lik joylarda o'tlatishda gohida muammolar vujudga kelmoqda. Ushbu masalada ham mahalliy va respublika hokimiyat vakillari orasida echilishi kerak bo'lgan muammolarning ham mavjudliklari mahalliy hokimiyat organlari hamda ziyolilarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni talab qiladi.¹

Ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yo'li – davlatlararo kelishuv va xalq diplomatiyasidir. Chunki, chegarada tikanli simlar tortilishi boshlangach, muammo yana ham yuzaga chiqa boshlagan.

O'zbekistonlik aholining chorva mollari o'tlaydigan adir va tog'liklar qo'shni mamlakat hududida qolib ketgan ekan. Ushbu muammoning echilishi tabiiy ravishda mahalliy hokimiyat organlari va davlatlararo kelishuv hamda xalq diplomatiyasi orqali o'z echimini topadi. Milliy tajribada xalq diplomatiyasi

¹ Qarang: Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. - T.2005.

muhim o‘rin egallab, tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga chiqish ehtimoli mavjud bo‘lgan muammolarning hal etilishida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birgalikda qishloqlarda mahsulotni qayta ishlash korxonalarini qurish ham mintaqada mavjud bo‘lgan ishsizlar sonini kamaytirish uchun zaruriy tadbir bo‘lib hisoblanadi. Respublikaga kirib kelayotgan mahsulotga nisbatan soliqni kamaytirish ham ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga molik bo‘lgan tadbirdir. Chunki, respondentlarning ta’kidlashlaricha soliqning yuqoriligi bois qo‘shni davlatlardan kirib kelayotgan mahsulot va tovarlar ko‘pincha bojxona xodimlari bilan o‘zaro kelishib yoki chegarachilar bilan kelishib aylanma yo‘llar orqali kirib kelinayotgani, buning natijasida davlat xazinasiga tushishi kerak bo‘lgan mablag‘ kimlarningdir cho‘ntagiga kirayotgani albatta salbiy hodisadir.

Olingan empirik asoslardan ko‘rinib turibdiki, oddiy aholi orasida o‘zaro munosabatlar yaxshi, ya’ni bir me’yorda ketayotganligini ko‘rsatadi.

Buning asosiy sababi sifatida chegaraning u tomoni va bu tomonidagi xalq orasida o‘zaro bordi-keldi munosabatalari kuchli bo‘lib, quda-andachilik davob etmoqda. Bu albatta har uch tomonning o‘zbeklari orasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlar orasida esa munosabatlarni mustahkamlash maqsadida Navro‘z va Mustaqillik kuni bayramlarida o‘zaro sport musobaqalari, har xil uchrashuvlar tashkil etish, shuningdek, hamkorlikda tadbirlar o‘tkazilayotganligi bunga misoldir.

Qirg‘izistondagi xalqaro «Tolerantlik» jamg‘armasi vodiy bo‘ylab «Tadbirkor ayol» jamg‘armasi bilan birgalikda o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash masalasida qator tadbirlar o‘tkazganliklarini ekspert respondentlar mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Ma’lumki, qadim zamonlardan buyon qo‘shni respublikalar chegaradosh tuman va qishloq aholisi kelin olib, qiz berish natijasida qarindosh– urug‘ bo‘lib ketishgan. Qo‘shni chegaradosh hududlardagi mahalliy hokimiyatlarning o‘zaro munosabatlarining yaxshi ekanligi, bir-birlarini tadbirlarga, bayramlarga muntazam taklif etishlari tabiiy ravishda ijobiy hol bo‘lib, o‘zaro qon-qarindosh bo‘lgan xalqlar va davlatlar o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlashda muhim rol

o‘ynaydi. “Qaysi millatlar orasidan nikohlar ko‘p uchraydi?”-degan savolga, qirg‘izlar ko‘p yashaydigan Namangan viloyatining Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida “Asosan o‘zbeklar bilan qirg‘izlar orasida” deb javob berishgan, shuningdek, tatarlarni ikkinchi o‘ringa, asosan tojiklar ko‘p yashaydigan Kosonsoy tumanida “O‘zbeklar bilan tojiklar orasida” deb javob qaytarishgan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qaysi hududda ikkinchi millat vakillari ko‘proq bo‘lishsa, asosiy millat bilan o‘sha millat vakillari orasida aralash nikohlar ko‘p uchrar ekan. Tatarlar ham vodiya ko‘pchilik bo‘lib, o‘zaro quda-anda sifatida xalqimiz bilan chatishib ketmoqda. Qirg‘izlar va tojiklar esa urf-odat, turmush tarzi o‘zbeklar bilan bir bo‘lib, o‘z taqdirlerini asosiy etnos taqdiri bilan mustahkam bog‘liqlikda rivojlantirmoqdalar.

Ushbu tasdiq, yana bir bor respublika hududlarida nizoli nuqtalar yo‘qligidan, turli millat vakillari tinch-totuv yashayotganidan dalolat beradi. Albatta, har-qanday taraqqiyot bevosita, millatlararo munosabatlarning ijobiy echimiga borib taqaladi.

Mintaqadagi etnosiyosiy vaziyat va ijtimoiy ziddiyatlar jarayonini Tojikiston misolida ham ko‘rib chiqish mumkin. Chunki,

1. Tojikistondagi vaziyat geografik hududning umumiyliigi, ya’ni yon qo‘shni sifatida O‘zbekiston jamiyatida ham o‘zining aksini topishi mumkin, bu haqda O‘zbekiston Prezidentining muayyan hududdagi aziyat qo‘shni bo‘lgan ikkinchi hududni ham qamrab olish xavfi mavjudligi haqidagi qator fikrlari misoldir;
2. Bugungi kunda Tojikiston aholisining to‘rt dan bir qismini o‘zbeklar tashkil etib, bu ham tabiiy ravishda O‘zbekistonni o‘zbek millati taqdiriga mas’ul bo‘lgan etnosiyosiy birlik sifatida befarq qoldirmaydi. I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: «O‘zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Afg‘oniston...., Tojikistonda... xorijdagi eng ko‘p sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas».¹

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI - asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997.- 38 b.

Millatlararo ziddiyatlarning vujudga kelishida turg'unlik yillari siyosati katta rol o'ynadi. Sobiq mamlakat bo'ylab milliy tillar kamsitilganidek, viloyat va tumanlar bo'ylab ozchilikni tashkil etuvchi xalqlar tillari kamsitildi, ularga etarlicha e'tibor berilmadi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda Tojikistonda o'zbeklar miqdor jihatidan tojiklardan so'ng ikkinchi o'rindadir. 1929 yil Tojikiston respublika sifatida e'lon qilingach ham, o'zbeklarni respublikaning tub, ya'ni muqim aholisi sifatida qarala boshlandi. O'zbeklarning ajdodlari yashab kelgan, keyinchalik avlodlari yashayotgan hududlar ham o'z asl nomi, ya'ni o'zbekcha nomlar bilan atalishi davom eta boshlandi: masalan, Ko'ktosh tumani, Yangi Bozor tumani, Aral tumani, Saroykamar tumani, Qizilmozor tumani va hokazo. Lekin, turg'unlik yillarining noto'g'ri siyosati hamda respublikada turkiy xalqlarning ijtimoiy-tarixiy rolini inkor etuvchi, milliy mahdudlikka berilgan ayrim oriy-eronparast millatchi ziyolilarning tashabbusi bilan yuqoridagi milliy o'zbekcha toponimlar, soxta nomlar, yoki sun'iy atamalar bilan aytila boshlandi. Masalan, Ko'ktosh-Lenin, Yangi Bozor - Orjonikidzeobod, Aral-Kuybishev, Saroykamar-Kirovobod, Qizilmozor-Sovet va hokazo. Ana shunday arziyas ikerchikir bo'lib ko'rinadigan, aslida esa juda muhim hisoblangan ushbu muammoni xolis, umummilliy va umuminsoniy huquq normalari darajasida hal etish, respublikada milliy munosabatlarning sog'lom rivojlanishiga kafolat bo'lishi mumkin. Biz esa, Tojikistonda yaqin o'tmishda ijtimoiy inqiroz palak yoyganligiga qaramay, butun Tojikiston xalqlarining kelajagi yo'lida faqat va faqat do'stlik mavqeida turishimiz lozim. Butun insoniyat taqdiri turfa tahlikalardan omonat turgan bugungi sharoitda, qolaversa, milliy mustaqillik mustahkamlanayotgan hamda iqtisodiyotimizda bozor munosabatlari shakllanib, rivojlanayotgan bir pallada mintaqada yashayotgan barcha xalq va millat vakillari bir yoqadan bosh chiqarib, ahil yashamoqlari lozimdir. Zero, kuch - do'stlikdadir. Bu olijanob tuyg'uni xalq orasida kengroq targ'ib qilish respublikada yashovchi barcha millat va elat vakillari zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir.

Tojikistonda siyosiy va milliy mustaqillik qo‘lga kiritilgach, ma’naviy qadriyatlar tiklanib, qishloq joylarda ham machit va madrasalarning qurilishi yuqori tezlikda davom etaverdi. Bu albatta milliy ma’naviyat hamda diniy qadriyatlarning boyishi uchun juda muhim edi. Natijada diniy ziyolilar soni orta boshladi. Lekin, bu machit va madrasalarning aksariyatidagi imom va mudarrislar milliy mahdudlikka o‘pkasidan berilgan mahalchi guruhlarining ta’siriga berilib, avom xalqni mavjud hokimiyatga qarshi mitinglarga undab, respublikadagi siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib kelganligi sababli, diniy ziyolilar o‘z navbatida progressiv va reaksiyon guruhlarga bo‘linib ketdi. Bizning fikrimizcha, siyosiy kuch, yoki guruhni progressiv yoki reaksiyon guruhlarga ajratishda asosiy kriteriya ijtimoiy taraqqiyot bo‘lishi kerak. Ijtimoiy taraqqiyotning rivojiga hissa qo‘shuvchi kuch – bu progressiv kuchdir. YOki, aksincha, ijtimoiy taraqqiyotning tormozlanishiga sababchi bo‘luvchi siyosiy harakat vakillari, tabiiy ravishda reaksiyon guruhdir.

Tojikiston voqealarini tahlil etadigan bo‘lsak, hokimiyatga qarshi turuvchi koalitsiyaga muxolafatdagi qurolli guruhlar tomonidan qo‘llab- quvvatlanuvchi qator partiya va harakatlar kirib, ular o‘z navbatda respublika tashqarisidan rag‘batlantirib turilar edi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Tojikiston ziyolilari va jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvi(2000 yil, 16 iyun)da so‘zlagan nutqida: «Iymonim komilki, Tojikistonda ro‘y bergan qarama-qarshilik va ziddiyatlarning kelib chiqishiga aslida bu erdagi muammolar sabab bo‘lgan emas. Ular tashqaridan keltirilgan edi. CHunki, tojiklardek ko‘hna tarixga ega bo‘lgan, dunyoga buyuk insonparvar mutafakkirlarni bergan xalq urush olovini yoqishga qodir emas. Bunday xalq odamlarning vahshiylashayotganiga, bir-birining yostig‘ini quritayotganiga, minglab begunoh vatandoshlarining o‘z boshpanasidan mahrum bo‘lishiga, tinch hayotining buzilishiga befarq qarab turolmaydi»¹ - degan edi.

¹ Karimov I.A. O‘zbek va tojik – ikki tilda so‘zlaydigan bir xalq. //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. –T.: O‘zbekiston, 2000. 512-513 bb.

Tojikistondagi fuqarolar urushining Bolqon bo'yi mamlakatlaridagi yoki Kavkaz orti respublikalaridagi fuqarolar urushidan farqi shundan iborat ediki, bu salbiy harakat fuqarolar urushining klassik namunasi, yoki klassik urushning takrori sifatida ichki mintaqalarning yoki turfa etnoregional guruhlarining hokimiyatga intilishi edi. Urushni vujudga keltirgan shart-sharoit bizning fikrimizcha respublika mustaqillikka erishgandan so'ng, siyosiy raqobat va etilayotgan ziddiyatli holatini tartibga solish mexanizmining hali yo'qligi bo'lib, bu o'sib kelayotgan urush eskalatsiyasi xavfining oldini olish ichki kontrbalansining umuman mavjud emasligini anglatar edi.

Tojikistondagi urush sabablarini tahlil qilish uchun respublika hududini geo-etnosiyosiy regionlarga bo'lib qarasak, voqeaning kelib chiqish sabablari ravshanroq bo'ladi. Respublika hududi (143100 kv.km) taxminan Gretsiya yoki Tunisning hududiga teng bo'lib, 93,0 % tog'lik va muzliklar bo'lganligi bois yilning asosiy qismida regionlarda tog'lik dovonlarning tabiiy-texnikaviy talablarga javob bera olmasligi sabab, qish paytida bu dovonlarning yopiqligi tufayli mintaqalararo ijtimoiy muloqot hamda respublika bo'ylab iqtisodiy-madaniy integratsiyaning zaifligidan dalolat edi. Ana shu nuqtai-nazardan olib qaraganda

Etnosiyosiy ziddiyatlar jamiyat taraqqiyotida, shuningdek, xalqlarning o'zaro totuv, baqamti yashashiga g'ov bo'luvchi jirkanch illat sifatida ushbu muammoning echimiga asosiy e'tibor qaratmoq lozim. Tojikiston voqealari ichki mintaqaviy ziddiyatlarning yorqin dalili sifatida respublikada ijtimoiy taraqqiyotni o'nlab yillar orqaga tashlab, yaxlit millat vakillari qalbida bir-biriga nisbatan dushmanona kayfiyat va adovat o'yg'otib, aytish mumkinki, yashirin ko'rinishdagi ichki ziddiyatlar hozirgacha davom etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa milliy respublikalardan farqli ravishda mustaqillikning dastlabki yillari Tojikistonda demokratik jarayonlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan guruhlar kurashi kuzatuvida ijtimoiy hayotda salbiy ahamiyat kasb etdi. Respublikada yuzaga kelgan bema'ni birodarkushlik urushi oqibatida nafaqat millatlararo munosabatlar rivojiga to'sqinlik qildi, balki, bir

butun yaxlit millatni tashkil etuvchi tojiklarni ham ichki-mintaqaviy belgilariga qarab, leninobodlik, ko'loblik, pomirlik va g'armlik kabi guruhlariga bo'lib yubordi. Tojikistondagi ushbu murakkab holat, tabiiyki, milliy-etnik jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Garchi, urush dastlab milliy zaminda yuz bermagan bo'lsada, keyinchalik milliy mohiyat ham kasb eta bordi.

Turfa tashkilotlarning rasmiy va norasmiy ma'lumotlariga qaraganda, fuqarolar urushining birinchi yili (1992) yigirma mingdan oltmish minggacha odam o'ldirilgan. Aksariyat manbalarning tasdiqlashlaricha konfrontatsion cho'qqida, ya'ni qarama-qarshiliklarning avjida – 1992-yilning iyunidan dekabrigacha ellik ming kishi qurbon bo'lgan. BMTning qochoqlar komissariati tarqatgan ma'lumotlarga qaraganda 600 ming kishi, ya'ni mamlakat aholisining o'ndan bir qismi o'zlarining doimiy yashash joylarini qochoq sifatida tark etishga majbur bo'lishgan. Sakson mingdan ziyod kishi Afg'onistonga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lishgan.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, o'sha siyosiy bosh-boshdoqlik yillari sog'lom fikr sohiblari bo'lmish respublika ziyolilarining aksariyat qismi passiv - kuzatuvchanlik mavqeini egalladilar. Qarama- qarshiliklar ibtidosida ziyolilarning ushbu qismi neytral mavqeda turmasdan, to'qnashishga moyil bo'lgan guruhlarini yarashtirish payida bo'lganliklarida edi, voqea mavjud darajadagi fojiaaviy holatda rivojlanmasdi ham. Insoniyat imkoniyatlari juda ham cheksizdir. Xususan, xalqning ongli qatlami bo'lgan ziyolilar har qanday janjalli vaz'iyatning oldini olib, qarama-qarshi guruhlarini yarashtirishi mumkin edi. Lekin, mana shu imkoniyatlarni cheklaydigan kuch mavjudki, bu – passivlikni vujudga keltiruvchi - xotirjamlikdir.

Yer kurrasidagi boshqa fuqarolar urushidan Tojikistonda bo'lib o'tgan urushning farqi – bu milliy yoki diniy nizo bo'lmasdan, bir millat vakillari orasida ichki mintaqaviy manfaatlarning qurolli to'qnashuvi edi. Bu kurash ibtidosida o'zaro muxolafatda bo'lgan partiya va harakatlar turfa siyosiy qarashdagi hamda markaziy va janubiy tumanlarda bevosita huquqni himoya qilish organlari bilan bevosita aloqador, ya'ni kerak payti qurolli guruhlarini safarbar qila oladigan

tashkiliy elitadan iborat bo'lib va bunday qurolli tuzilmalar tabiiyki, mintaqaviy manfaatlardan kelib chiqib shakllangan edi. Aslida, 90-yillarning boshida mavjud hokimiyat o'sib kelayotgan fundamentalistlar va tog'liklarning tazyiqidan ma'lum darajada mudofaalanish uchun hokimiyatda bo'lmagan Ko'lobliklar bilan ittifoq tuzadilar. Ya'ni, ko'loblik I.Hayoevni SovMinning raisi lavozimiga ko'taradilar. Bu bilan leninobodlik va ko'lobliklar orasida ma'lum darajada yaqinlik paydo bo'lsada, hokimiyat va tog'liklar orasida qarama-qarshilik yashirin shaklda rivojlanaveradi.

O'zbekiston Tojikistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda hamda tojiklararo munosabatlarning ijobiy echimida sezilarli mavqeni egalladi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1992-yilning sentyabrida BMTning bosh kotibiga murojaatnoma yo'llab, xalqaro hamjamiyat e'tiborini Tojikiston muammolariga qaratib, uni tinch yo'l bilan hal etishga chaqirdi. O'zbekiston Tojikiston uchun yonma-yon qo'shni hamda yaqin bir yarim million o'zbeklar yashaydigan ushbu hududiy birlik taqdiriga befarq emas, balki qo'shni davlat fojeasini shaxsiy fojea sifatida e'tirof etib, O'zbekiston Prezidenti jahonning eng obruli tashkilotining diqqat-e'tiborini Tojikiston voqealariga jalb etib, iqtisodiy inqiroz pallasida respublikaga yordam qo'lini cho'zdi. I.A.Karimov: "Biz Tojikiston iqtisodiyotining oyoqqa turishini istaymiz. SHuning uchun ham o'zimizdagi murakkab ahvolga qaramay, qo'shni Tojikiston uchun texnika vositalari hamda yoqilgi mahsulotlarini yordam tariqasida yubormoqchimiz",¹ - degan edi. 1992-yilning sentyabrida O'zbekiston Prezidenti Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh sekretariga Tojikiston muammolarini jahon hamjamiyati tomonidan tinch yo'l bilan hal etish haqidagi murojaati natijasida BMT Tojikiston muammolariga aralasha boshladi. Tojikiston uchun o'sha mash'um yillari vaziyatning siyosiy echimini topishga ko'maklashishi uchun «Laqay ovozi» uyushmasi tomonidan O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovga qator murojaatnomalar, shu bilan bir qatorda Assotsiatsiya umumiy yig'ilishida 1992

¹ Xalq so'zi gazetasi. 1994 yil. 3-mart.

yilning 16-iyulida Toshkentda bo‘lib o‘tadigan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining bo‘lib o‘tadigan uchrashuviga Murojaatnoma qabul qilinib, Toshkentga jo‘natildi.

Qo‘shni mamlakatdagi mana shunday boshboshdoqlik va jaholat hukmronligi davrida O‘zbekiston Respublikasining tashabbusi hamda xalqaro tashkilotlarga qilingan ko‘plab murojaati natijasida BMT respublikada tinchlikni barqarorlashtirishni o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekiston rahbariyatining keyingi say-harakatlari natijasida qochoqlarni o‘z tarixiy vatanlariga qaytarish, hokimiyat bilan muxolafatni o‘zaro kelishtirish jarayonlari boshlandi. Natijada voqealar xronologiyasi quyidagi tartibda amalga oshdi:

1. 1994-yilning aprelida Moskvada tojiklararo kelishuvning birinchi raundi bo‘lib o‘tib, bu kelishuv qochoqlarni Tojikistonga qaytarish masalasini o‘rtaga tashlaydi.
2. 1994-yilning iyunida tojiklararo kelishuvning ikkinchi raundi Tehronda bo‘lib o‘tib, bu erda ham asosiy muammo qochoqlar masalasi bo‘ladi.
3. 1994-yilning oktyabrida Islomobodda tojiklararo kelishuvning uchinchi raundi bo‘lib o‘tib, o‘zaro o‘t ochishni to‘xtatish haqida kelishuv imzolanadi. Bu bilan albatta o‘t ochish to‘xtagan emas, o‘zaro bo‘ysunmaydigan dala komandirlari orasida qurolli to‘qnashuv kichik-kichik ko‘rinishda bo‘lsada, davom etadi.
4. 1995-yilning mayida Olma-Otada tojiklararo kelishuvning to‘rtinchi raundi bo‘lib o‘tadi. Bu raundda asosiy masala harbiy asirlarni almashtirish va qochoqlarni butunlay Tojikistonga qaytarish haqida kelishiladi. Albatta, masalalar birdaniga hal bo‘lmasdan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu kelishuvlar albatta davlat boshlig‘i va birlashgan tojik muxolafati rahbari bilan o‘zaro uchrashib, muammolarni hal etish borasida siyosiy va ma’naviy asos yaratadi. Natijada 1995-yilning mayida E. Rahmonov va A.Nuri Kobulda uchrashib «Tojikistonda tinchlik va milliy kelishuvga erishishning asosiy prinsiplari» haqidagi protokol imzolanadi.
5. Beshinchi davomli raund 1995-yilning noyabridan 1996-yilning iyuligacha davom etib, Ashxobodda bo‘lib o‘tadi. Ushbu raundda hokimiyat va muxolafat

integratsiyasi, muxolafat jangarilarining hokimiyat armiyasi tarkibida xizmat qilishi masalalari ko'tarildi. Ushbu raunddan so'ng 1996-yilning dekabrda E. Rahmonov va A. Nuri Afg'onistonda uchrashib, qurolli qarama-qarshilikka chek qo'yish haqida umumiy bitim imzolanadi.

6. Oltinchi raund 1997-yilning yanvaridan mayigacha Tehron, Moskva, Mashhad va Bishkekda o'tkaziladi. Bunda birlashgan tojik muxolafati jangarilarini tarqatib, milliy qurolli kuchlar tarkibiga kirgizish, Tojikiston islom o'yg'onish partiyasini qonuniy asosda qayta ro'yxatdan o'tkazish, birlashgan tojik muxolafati vakillari uchun ijroiya hokimiyat tarkibida 30% kvotaga erishish kabi masalarni hal etishga bag'ishlanadi.

Respublikadagi milliy-etnik muammolarning qanday hal etilishi, respublika iqtisodiy ahvoliga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qaysiki mamlakatda ijtimoiy nizo kuchli ekan, iqtisodiy tanazzulning rivoji tabiiydir. Jamiyat yoki davlatda ijtimoiy taraqqiyot siyosiy barqarorlikda rivojlanadi. Siyosiy barqarorlik esa, milliy-etnik munosabatlarning ijobiy echimiga bog'liq. Ma'lumki, milliy davlatchilik hududi ushbu etnik birlikka mansub bo'lgan barcha millatdoshlarning orzu- armonlarini ifodalabgina qolmasdan, balki, ular taqdiri doimo mana shu milliy davlatchilikning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Siyosiy va milliy mustaqillik aholining ongli qatlami bo'lgan ziyolilar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirdi. Ayniqsa, fuqarolar urushi natijasida xalq xo'jaligining muayyan qismi vayronaga aylandi, aholining moddiy turmushi darajasi pasaydi, kishilar dunyoqarashi - yoshlar psixologiyasi o'zgarib salbiy ma'no kasb etdi. Hurmat-izzat, imon-e'tiqod tushunchalari hamda vijdon mas'uliyati yoshlar tafakkuridan ko'tarilib, hurmatsizlik, o'g'rilik va zo'ravonlik kabi salbiy xislatlar o'rin oldi. Urushning iqtisodiy oqibatlari bilan bir qatorda ma'naviy oqibatlari ham tugatilmas ekan, respublika ijtimoiy hayotining muvaffaqiyatini ta'minlash murakkabligicha qoladi. Zero, ijtimoiy taraqqiyot va fuqarolar urushi bir-biriga zid bo'lgan ikki qarama-qarshi tushunchalardir.

Xullas, milliy masala davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, unga e'tibor qaratmaslik jamiyatda jarohatli nuqtalarni keltirib chiqarishi muqarrardir.

Ana shu jarohatning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasdan, jamiyatni tanazzulga boshlovchi bunday jirkanch illatga qarshi aholi tafakkurida kuchli immunitetni shakllantirib rivojlantirish zimmamizdagi ulkan mas'uliyatdir. Tojikistonda ham yaqin o'tmishda kurtak ochishga moyillik bergan millatlararo qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish uchun barcha elat va xalqlarga tarixiy-milliy an'ana va madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratib bermoq lozim. Toki, barcha millat va elatlar o'z urf-odatini, milliy an'analarini namoyon etsin. Bizda ilgari bir respublikaning madaniyat va adabiyot xodimlaridan iborat guruh ikkinchi respublikaga borib, o'n kunlik (dekada) o'tkazar edilar. Ana shunday tadbirlar millatlararo munosabatlarning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalqlar orasida do'stlik, baynalmilallik hislarini o'yg'otar edi. Haqiqatan, Markaziy Osiyo xalqlari orasida bordi-keldi - do'stlik munosabatlari, o'zaro adabiy dekadalar tashkil etilaversagina, ushbu millatlar orasida ham bir-biriga muhabbat, do'stlik, umuman baynalmilallik xislatlari shakllanib, milliy munosabatlar ijobiy shakl kasb etib rivojlanaveradi. Tarixni tahlil qilaverib, ulkan adiblar millatlar orasidagi do'stlik ko'prigi ekanligiga imon keltirmay iloj yo'q.

Shu o'rinda O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan "Turkiston xalqlari madaniyati forumi"ning Toshkent shahrida bo'lib o'tgan (noyabr 1995) qurultoyi ancha yillardan buyon sustlashib ketayotgan madaniy munosabat hamda ushbu zaminda rivojlanishi mumkin bo'lgan millatlararo munosabatlarning optimallashtiruviga ijobiy ta'sir etib, munosabatlar rivojiga zamin yaratdi.

Milliy munosabatlar tizimida etnosiyosiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda xalqlarimiz tafakkurida, etnik mentalitetida ilgari mavjud bo'lgan «yuz o'lchab bir kes» kabi xislatlar, ya'ni o'zaro hamjihatlik hamda bag'rikenglik (tolerantlik)xislatlari muhim rol o'ynaydi. I.A.Karimovning: «...Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fe'llikning mavjudligi bilan izohlanadi. Bu sof insoniy tuyg'u, masalan, o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy kengfe'llik ularning umumiy

madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan»,¹ – degan fikrlari mintaqamiz xalqlari xarakteridagi bag‘rikenglik jihatlarining ustunligidan dalolatdir. Ehtimol tutilgan har qanday ziddiyatli vaziyatni mintaq xalqlariga xos bo‘lgan bag‘rikenglik asosida bartaraf etish mumkin. Milliy mustaqillikning ibtidosida sobiq totalitar tuzumning mintaqadagi oxirgi nayrangi o‘zbeklar va qirg‘izlar, o‘zbeklar va mesxeti turklar orasida nizo chiqarish bo‘ldi. Xalqlarimiz tafakkuridagi bag‘rikenglik xususiyati hayotning ushbu shafqatsiz imtihonidan ham olib o‘tdi.

Tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik – yer kurrasida mavjud turli boy madaniyatlarni, ma’naviyatlarni, turfa urf-odat, an’ana va inson o‘zini namoyon qilishining turfa usullarini hurmat qilish hamda to‘g‘ri tushunib, madaniy plyuralizmga imkoniyat yaratishning odilona ko‘rinishidir.² Markaziy Osiyo hududi tuman asrlar davomida turli-tuman madaniy qarashlar, din, urf-odat, turmush tarzi hamda an’analariga ega bo‘lgan xalqlarning tinch-totuv bo‘lib yashash makoni bo‘lib kelgan. Demak, ushbu tabarruk hududda yashagan xalqlar, o‘zlarining etnik taraqqiyoti bosqichlarida boshqa xalqlar, millat va elatlar vakillariga nisbatan xayrixoh hamda hurmat bilan munosabatda bo‘lib kelganlar. Etnik, madaniy hamda diniy ehtirom, xayrixohlik va bag‘rikenglik Turonzamin xalqlarining oddiy insoniy fazilatlarini sifatida qaror topgan. Biz o‘sha ajdodlarning vorisi sifatida bag‘rikent va ochiq ko‘ngilli avlod bo‘lib etishimiz hamda mintaqada milliy munosabatlar rivojida mavjud ijtimoiy muammolarni bag‘rikenglik tamoyili asosida hal etib, yoshlarni ham ushbu maqsad yo‘lida tarbiya etishimiz lozim.

Demak, jamiyatda etnosiyosiy va ijtimoiy muammolar mavjud bo‘lib, ularning ijobiy yechimi milliy munosabatlar rivojida muhim ahamiyatga egadir. Mintaqada ushbu muammolarning oldini olish uchun mintaq xalqlari va davlatlari orasida ijtimoiy-madaniy integratsiyaga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Ushbu paragrafning dastlabki sahifalarida keltirilgan sotsiologik tadqiqot

¹ I.Karimov.O‘zbekiston XXI-asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. Toshkent, 1998. 84-85 bb.

² Betty A. Reardon. La tolerance, porte ouverte sur la paix. UNESCO, 1997. - P. 127.

materiallari Markaziy Osiyo aholisi orasida ijtimoiy-madaniy integratsiyaga moyillik jihatlarining kuchli ekanligidan dalolatdir. Bu tarixiy taqdir, o'xshash mentalitet va umumiy kelajagimizdan dalolatdir. Ana shu kelajagimizning istiqbolli jihatlarini ta'minlash – zimmamizdagi vazifadir.

Mintaqadagi milliy-etnik jarayonlarning ijobiy rivojini ta'minlashda chegara hududlarda kichik-kichik ko'rinish berayotgan muammolarni o'rganib, ularning oldini olish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriy ahamiyatga egadir. Ushbu masalada Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari bilan chegaradosh bo'lgan Farg'ona vodiysi tadqiqot ob'ekti sifatida olinib, mavjud muammolarning o'rganilishi va bu muammolar faqatgina O'zbekiston jamiyati uchun emas, balki Qirg'iziston va Tojikiston jamiyatlariga ham xos muammo sifatida maydonga chiqqanligi, demak, ushbu muammolar echimida mintaqa davlatlari birgalashib hissa qo'shishlari, buning uchun davlatlararo kelishuv va xalq diplomatiyasidan unumli foydalanish lozimligi g'oyalari ilgari surilgandir. Demak, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o'z vaqtida oldi olinmas ekan asta-sekinlik bilan etnosiyosiy muammolar sifatida namoyon bo'lib, masshtab va hudud jihatidan ham kengayuvchan xarakter kasb eta boradi. SHu jihatdan ham mintaqada ijtimoiy muammo sifatida ko'rinish berayotgan hollarning oldini o'z vaqtida olish talab etiladi.

Jamiyatda Milliy Madaniy Markazlarning tashkil etilishi millatlararo aloqalarning mustahkamlanishi hamda milliy-tarixiy qadriyatlarimizning rivoji uchun asosiy omildir. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib, ularning aksariyati o'z Milliy Madaniy Markazlari atrofiga birlashganlar. Bu albatta O'zbekiston xalqlarining bag'rikengligidan va o'zaro hurmat asosida yashab kelayotganliklaridan guvohdir. Shuningdek, jamiyatdagi fuqaroviy totuvlikning asosida etnik barqarorlik yotadi. Shu o'rinda I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi baynalmilal markazi tashkil etilganining 10 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlis qatnashchilariga tabrigida: «Har qanday davlat, har qaysi mamlakatning taraqqiyot darajasini, xalqaro maydondagi obru-e'tiborini belgilashda, avvalo, undagi tinchlik, barqarorlik va fuqarolararo totuvlikning

nechog‘li mustahkam ekani asosiy mezon bo‘lib xizmat qilishi barchamizga yaxshi ma‘lum...Bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir» degan edilar.

Mintaqada o‘zbeklar va tojiklar orasidagi munosabatga kelsak, ular turkiy va forsiy lahjalarda so‘zlashishlariga qaramay, yagona diniy mazhab, urf-odat va an‘analari, o‘troq turmush tarzi o‘nlab asrlardan buyon ikki xalqni o‘zaro birlashtirib kelmoqda. Bugungi kunda bir yarim millionga yaqin o‘zbek Tojikistonda, xuddi shuncha tojik O‘zbekistonda yashamoqdalar. Tojikistonda ham qator Milliy Madaniy Markazlar va Milliy jamoat birlashmalari respublikada ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirishda etnik guruhlar faoliyatini safarbar etish borasida qator ishlar qilishmoqda. Chunonchi, “O‘zbek jamiyati”, “Laqay ovozi” assotsiatsiyasi, shuningdek, ruslar, nemislar, koreyslar uyushmasi kabi milliy bir xillikka asoslangan jamiyat tashkilotlari hamda Qo‘rg‘ontepa mintaqasida turfa millat vakillarini o‘z atrofiga birlashtirib amal qilayotgan “Do‘stlik” jamiyati xalq va elatlar orasida aloqalarni mustahkamlash uchun ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni qilmoqdalar.

Jamiyatda etnik ziddiyatlarni bartaraf etib, millatlararo munosabatlarning ijobiy rivojida barcha millat va elat vakillarining milliy urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlar asosida sayqallangan milliy-madaniy an‘analari muhim ahamiyatga ega. Xullas, ziddiyatli mintaqada siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish birinchi navbatda ushbu barqarorlik va tinch-totuvlikdan manfaatdor bo‘lgan qo‘shni mamlakat zimmasiga tushadi. Tojikistondagi siyosiy vaziyat izdan chiqqan dastlabki kundan boshlab O‘zbekiston tomonidan jahon hamjamiyati diqqat-e‘tibori ushbu muammoga jalb etilib, xalqaro minbarlardan ushbu jarayonning oldi olinmas ekan ko‘lami va oqibatlarini dahshatli bo‘lgan jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi g‘oyasi ko‘plab marotiba bong urildi. Natijada, o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari jahon miqyosida obruyi va e‘tibori bugungidan bir-necha barobar ustun bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tojikiston voqealariga e‘tibor qaratib, Tojikistondagi vaziyat nisbatan o‘zaniga qayta boshladi.

Siyosiy vaziyat qalqib turgan ko'pmillatli jamiyatda milliy-etnik jarayonlarni barqarorlashtirishga hissa qo'shish ziyolilar zimmasidagi vazifalardan biri bo'lib, jamiyatning optimal rivoji bevosita ushbu jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Aks holda, siyosiy vaziyat taranglashgan jamiyatda milliy-etnik jarayonlar ham beqaror mohiyat kasb etib, jarayonni boshqarib turgan shaxslar faoliyatiga qarab pozitiv yoki negativ mohiyat kasb etishga moyil bo'ladi. Shunday holatda milliy-etnik jarayonlarni to'g'ri yo'nalishga solib, faoliyatni mavjud inqirozni bartaraf etishga yo'naltirish ziyolilarimiz zimmasida bo'lishi lozim.

Xulosa qilib, aytish mumkinki milliy-etnik jarayonlar jamiyat rivojini belgilar ekan, bunga istiqbolsiz jarayon sifatida panja ortidan qarash zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki, ko'pmillatli jamiyat barcha ijtimoiy-milliy qatlamlarning manfaatlari uyg'unlikda olib qaralishini taqozo etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari tarix va taqdirning umumiyligi, urf-odat, an'ana va mentalitetning o'xshashligi bois o'nlab asrlardan beri yonma-yon yashab, yaxshi qo'shnichilik va qarindoshlik an'analari ruhida yashab kelmoqdalar. Ana shu jihatlarni o'rganish maqsadida YUNESKO tashkilotining homiyligida mintaqa davlatlari (Turkmaniston respublikasidan tashqari)da o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari mintaqa xalqlari orasida madaniy integratsiyaga moyillik jihatlarining ustunlik ko'rinishda ekanligini ko'rsatmoqda. Mintaqa respublikalarida yashovchi aholi orasida qon-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi millatlararo hamkorlik va munosabatlarning ijobiyligidan dalolatdir.

2.3. "Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik" mavzusini o'qitishning texnologik modeli

O'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini o'qitishda ularni milliy totuvlik, hamjihatlik ruhi bilan tarbiyalash, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni a'naviy-axloqiy qadriyat ekanligi, fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil mamlakatimiz xalqining bukilmas irodasi, matonati, kelajakka va yurt istiqboliga ishonch g'oyasi ekanligi, mamlakat barqarorligi, tinchligi va xavfsizligini ta'minlash ishlarida kishilarimizga harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilishini tushuntirish lozim.

Milliy istiqloq mafkurasining millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik goyalarini singdirish –yoshkarda milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqlar do'stligi va birodarligi, tinch-totuv yashash, tinchlik va barqarorlikka nisbatan intilish tamoyillarini ularning ongida vujudga kelishining muhim xususiyatidir.

Millatlararo hamjihatlik umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Xar bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Xar bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlari bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega buladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri xisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jaxondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan xam bogliqdir. Xalqimizning «Qo'shning tinch – sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng xuquqli munosabat bo'lmasa, ulardan xech biri uzining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va xamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov buladigan eng xatarli to'sik — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya

tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin turixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Faqat millatlararo totuvlik g'oyasiga tayanib, umumiy maqsadlar yo'lida xamjixat bo'lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek olijanob maqsadlarga erishish mumkin.

Azal-azaldan ona yurtimizda islom, nasroniylik, iudaviylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdigidir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba tuplaganidan dalolat beradi.

Mazkur zarurlatlardan kelib chiqib ta'im-tarbiya jarayonida milly g'oyani yoshlar ongiga singdirishda zamonaviy yondashuvlar va o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Xususan, milliy g'oyaning "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik" g'oyasi mazmunini organishda quyidagi mavzu asosidagi amaliy mashg'ulot ishkanmasidan foydalanish mumkin:

**“Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik” mavzusidagi
amaliy mashg'ulotning texnologik modeli**

(Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan)

Mashg'ulotga ajratilgan vaqt – 80 m.	O'quvchilar soni – 30-40 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Mashg'ulot rejasi	1. Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik tushunchalarining mohiyati va mazmuni. 2. Milliy g'oyaning millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, hamjixatlik va hamkorlik omili

	ekanligi. 3. Markaziy Osiyodagi milliy munosabatlarga oid muammolar 4. Millatlararo hamkorlikni ta'minlash omillari
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag'rikenglik haqida tushuncha berish.
Pedagogik vazifalar: Mavzuning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda, ma'ro'zani muayyan qismlarga bo'lish, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, ochib berish, tushuntirish, shakllantirish	O'quv faoliyati natijalari: Millatlararo totuvlik g'oyasining mohiyati va mazmuni. Diniy bag'rikenglik g'oyasining mohiyati va mazmuni haqida tushunchaga ega bo'ladi, mazmunini yoritadi, tavsiflaydi
Ta'lim metodi	Klaster, tushuntirish, suhbat, matn ustida ishlash, insert, besh minutlik esse, muammoli vaziyat, rezyume
O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli	Ommaviy, guruhli, individual
Didaktik vositalar	Slayd-taqdimot, tarqatma materiallar
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat	O'z-o'zini nazorat qilish

“Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag‘rikenglik” mavzusidagi o‘quv seminarining texnologik kartasi

Ish bosqichlari va ajratilgan vaqt	O‘qituvchi	O‘quvchi
Motivatsion bosqich (10 minut)	1.1. O‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb etish maqsadida “Millatlararo totuvlik – taraqqiyot garovi” mavzusida erkin insho yozdirdish topshirig‘ini beradi (1-ilova).	O‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan qoidalarga muvofiq klaster tuzishadi.
	1.2. O‘quvchilar yozilgan insho bilan tanishadi va ularni sharhlaydi.	O‘z fikrlarini boshqalar bilan o‘rtoqlashadi va munozarada ishtirok etishadi.
	1.3. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi (2-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
Asosiy bosqich (50 minut)	2.1. “Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag‘rikenglik tushunchalarining mohiyati va mazmuni” haqida matn bilan ishlashda “insert” usulidan foydalanish tartibini tushuntirib beradi (3 va 4-ilovalar).	“Insert” usuli yordamida individual ravishda matn ustida ishlaydilar.

	2.2. “Insert” yordamida o‘quvchilar matn ustida ishlab bo‘lishgach, matn yuzasidan muhokama o‘tkazadi.	Savollarga javob beradilar, muhokamada ishtirok etadilar.
	2.3. O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘ladi, kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (5- ilova).	Kichik guruhlarda ishlashadi, hayotiy misollar taqdimotini o‘tkazishadi.
Refleksiya bosqichi (20 minut)	3.1. “Millatlararo totuvlikni ta’minlash milliy hamkorlik munosabatlarining o‘rni” to‘g‘risida besh minutlik esse yozishni so‘raydi (6- ilova).	Individual ravishda topshiriqni bajarishadi.
	3.2. O‘quvchilarning besh minutlik esselarini tinglaydi va sharhlaydi.	O‘z fikrlarini boshqa o‘quvchilar bilan o‘rtoqlashadi, shaxsiy nuqtai nazarini bayon etadi.
	3.3. “Yoshlarni diniy ekstremizm va millatchilik g‘oyalariga da’vat qilishga harakatlarning oldini olish” masalasida muammoli vaziyat jadvalini to‘ldirish topshirig‘i beriladi (7-ilova)	Guruh bo‘lim jadval to‘ldiriladi va izohlanadi.
	3.4. O‘quvchilarga mustaqil ish topshirig‘i sifatida	Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma olishadi,

	mavzu yuzasidan buklet tayyorlash topshirig‘ini beradi va mavzuni mustahkamlash, mustaqil o‘rganish uchu chizmalar ko‘rinishidagi tarqatma materiallarni taqdin qiladi(8-ilova).	o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishadi.
--	---	---

1-ilova

“Millatlararo totuvlik – taraqqiyot garovi” mavzusida erkin insho topshirig‘i

Topshiriq: “Millatlararo totuvlik – taraqqiyot garovi” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin insho ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. O‘quvchilardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.
2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma‘lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki, odatda, eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.
3. O‘quvchilardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt o‘quvchi o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi o‘quvchilardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr bo‘lsa, aytishlarini so‘raydi.

2-ilova

Mavzu: “Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag‘rikenglik”

Reja:

1. Millatlararo totuvlik, milliy va diniy bag‘rikenglik tushunchalarining mohiyati va mazmuni.
2. Milliy g‘oyaning millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, hamjixatlik va hamkorlik omili ekanligi.

3. Markaziy Osiyodagi milliy munosabatlarga oid muammolar
4. Millatlararo hamkorlikni ta'minlash omillari.

3-ilova

“Insert” usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar

1. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilardan o'z qog'ozlariga quyidagi belgilarni qo'yib borishlari so'raladi:
“+” – men uchun yangi;
“!” – mening tasavvurimga zid;
“√” – men uchun tushunarsiz;
“?” – men bu tushunchaning ma'nosini bilmayman.
2. O'qituvchi sinf taxtasiga yuqoridagi to'rt belgini yozib qo'yadi va o'quvchilarning fikrlarini mos ustunga yozib chiqadi.
3. O'quvchilar bilan birgalikda yozilgan fikrlarni muhokama qilishadi. O'quvchilar uchun noma'lum bo'lgan jihatlarini tushuntirib beradi.

4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
 2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
 3. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta, murojaat qiling.
 4. Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta, yordam bering.
 5. Guruhiy taqdimotga o'z hissangizni qo'shing.
- Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- ☐ boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- ☐ biz bitta kemadamiz: birgalikda suzib chiqamiz yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

5-ilova

Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

1-guruh uchun topshiriq

Topshiriq: “Millatlararo totuvlik” va “bag'rikenglik” tushunchalarini izohlang.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1) savolni kichik guruhda muhokama qiling;
- 2) javob variantlarini umumlashtiring;
- 3) vatman qog'oziga taqdimot uchun materiallarni joylang.

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt: 5 daqiqa.

Birliklar	Belgilari
Millat	Yashash joyidan qat'iy-nazar, umumiy etnik belgilarga egalik
Etnik guruh	Bir necha yuz yoki ming kishidan iborat bo'lgan, bir-biri bilan zaif bog'langan birlik birlashuv asosida etnik
Milliy guruh	Mazkur mamlakat (mintaqa)da tub aholi bo'lmagan
Etnografik guruh	Millat yoki elatning alohida ajralib qolgan, til, madaniyat, turmushda o'ziga xosliklarni saqlagan qismi
Elat	Iqtisodiy aloqalarga, til, hudud, madaniyat mushtarakligiga, o'z-o'zini anglashga, mushtarak psixologiyaga ega bo'lgan va mazkur belgilar millat bilan

2-guruh uchun topshiriq

Topshiriq: “Turkiston – umumiy uyimiz” iborasining mohiyatini tushuntirib bering.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1) savolni kichik guruhda muhokama qiling;
- 2) javob variantlarini umumlashtiring;
- 3) vatman qog'oziga taqdimot uchun materiallarni joylang.

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt: 5 daqiqa.

3-guruh uchun topshiriq

Topshiriq: “Diniy bag'rikenglik” iborasini sharhlang.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1) savolni kichik guruhda muhokama qiling;
- 2) javob variantlarini umumlashtiring;
- 3) vatman qog‘oziga taqdimot uchun materiallarni joylang.

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt: 5 daqiqa.

4-guruh uchun topshiriq

Topshiriq: “Milliy- etnik nizolar” jumlasiga izoh bering.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1) savolni kichik guruhda muhokama qiling;
- 2) javob variantlarini umumlashtiring;
- 3) vatman qog‘oziga taqdimot uchun materiallarni joylang.

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt: 5 daqiqa.

Siyosiy konfliktlarning sabablari

Konfliktlarni keltirib chiqaruvchi omillar	
1.Strukturaviy omillar Kuchsiz davlatlar; Davlatlararo xavfsizlik manfaatlari; Etnik jug‘rofiya.	2. Iqtisodiy-ijtimoiy omillar Iqtisodiy muammolar; Diskriminatsion iqtisodiy tizim; Modernizatsiya.
3. Siyosiy omillar Diskriminatsion siyosiy institutlar; Milliy mafkura; Guruhlararo siyosat; Elita siyosati.	4.Madaniy-ma’naviy omillari Madaniy kamsitishning ko‘rinishlari; Guruhlarning muammoli tarixi.

6-ilova

Besh minutlik esse yozishga doir ko‘rsatmalar

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Besh minutlik essenini yozish qoidalari:

1. Taklif etilgan mavzuga doir soʻzlar hajmi 100 tadan 150 tagacha boʻlishi mumkin.
2. “Millat, bagʻrikenglik deganda tushunaman”, “Milliy bagʻrikenglik ... kabilarni oldini olishga xizmat qiladi”, “Milliy totuvlik insonlarning... boʻlishlariga xizmat qiladi” kabi jumladan foydalaning.


7-ilova

“Muammoli vaziyat” texnologiyasi

Muammoning turi “Muammoli vaziyat”	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yoʻllari va unda guruh harakati


8-ilova



8.1–chizma




MILLATLARARO MOJORO

8.2– chizma







X U L O S A

1. Milliy istiqlool jamiyatimiz a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy kamolotining kafolati sifatida kundalik hayotimizda ijobiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda jamiyatning siyosiy-ijtimoiy yangilanishida ham muhim ahamiyatga egadir. Chunonchi, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar kishilar ongida yangicha dunyoqarashni rivojlantirmoqda. Ayniqsa, milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli hamda milliy tafakkurning rivoji bois jamiyat a'zolarida o'zlikni anglash jarayonlari o'sib, etnik dunyoqarash yangicha mazmun kasb etib, ijtimoiy taraqqiyot rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunonchi, o'zlikni anglash jarayonlarining rivoji bilan bir qatorda, mintaqa xalqlarida madaniy integratsiyaga moyillik va shu asosda mavjud muammolar echimini topish mintaqa xalqlari orasida do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish bilan bir qatorda sivilizatsiyalararo muloqot madaniyati rivojida ham muhim ahamiyatga ega.

Etnosiyosiy jarayonlar rivoji muayyan taraqqiyot bosqichlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy tuzilishiga o'ziga xos tarzda ta'sir etib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining rivojiga xizmat qilsa, bunda u progressiv mazmun kasb etadi. Agar etnik jarayonlar jamiyatda boshboshdoqlikka sabab bo'lib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojiga to'sqinlik qilsa, ushbu holatda u salbiy mohiyat kasb etgan bo'ladi. Shu jihatdan ham jamiyatda milliy-etnik jarayonlarni muvofiqlashtirib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivoji uchun safarbar etish muhimdir.

Har qanday demokratik jamiyatning siyosiy istiqboli jamiyatda umuminsoniy, milliy va etnik manfaatlarning uyg'unlashuvi jamiyatda mavjud bo'lgan milliy-etnik muammolarning ijobiy, oqilona echimiga hamda jamiyat taraqqiyoti uchun tanlangan yo'l, amalga oshirilajak iqtisodiy islohotlar, mavjud ijtimoiy muammolar echimida qo'llanilayotgan metod va usullarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi

2. Millatlararo hamjihatlik Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy xarakter kasb etishi bilan bir qatorda global, ya'ni planetar xarakterga ham ega. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ifodasini topgan mintaqada tinchlik va

barqarorlikning siyosiy-huquqiy kafolati sifatida, o‘zaro yaqin etnogenetik asosga ega bo‘lgan xalqlarning milliy an‘ana va madaniyatlarini targ‘ib etib, mintaqada ijtimoiy-madaniy omillar rivojida hamda jamiyatning umuminsoniy qadriyatlar sari transformatsiyalashuvida asosiy rol o‘ynaydi.

Mintaqa xalqlariga xos etnotarixiy omillar ham etnoijtimoiy hamjihatlikning barqaror xarakterga ega ekanligini ta‘minlaydi. Chunonchi, o‘nlab asrlar davomida Markaziy Osiyo hududida o‘ziga xos etnik madaniyat, turmush tarzi va an‘analar shakllanib, asrlar davomida rivojlanib bordi. Ayniqsa Sharq va G‘arb orasida savdo-iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgach, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan mintaqamiz xalqlari jahonning turfa xalqlari bilan savdo-xo‘jalik, shu bilan bir qatorda madaniy aloqalarni ham rivojlantirib bordi. Ana shunday ijtimoiy-madaniy va savdo iqtisodiy taraqqiyot tufayli mintaqadagi kichik etnik birliklar yirik etnos sifatida shakllanib bordilar.

Xullas, etnoijtimoiy va millatlararo hamjihatlik jamiyat taraqqiyotida muhim omillardan biri bo‘lib, etnoijtimoiy tushunchasini ijtimoiy hayotda etnik birliklar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon sifatida qaralsa maqsadga muvofiqdir.

Millatlararo hamjihatlik esa ushbu hududiy birlikda istiqomat qiluvchi barcha millat va etnik guruhlarining birligini ta‘minlashni, shuningdek, mintaqada tinchlik va totuvlikni mustahkamlash yo‘lida omil bo‘lib hisoblanuvchi qo‘shni mamlakatlar va jahondagi manfaatdor davlatlar bilan hamkorlikni taqozo etadi.

O‘zbekistondagi millatlararo hamjihatlik mintaqadagi tinchlik va taraqqiyot garovidir. Qolaversa, jahon miqyosida turfa tahdidlarning kuchayayotganligi sharoitida, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar hududidan uyushgan jinoyatchilarning narkokaridor sifatida foydalanishga urinishlari ham tahdid sifatida saqlanayotgan hamda tashqaridagi ayrim kuchlar tomonidan mintaq xalqlari orasidagi umumiy jihatlar emas, balki o‘ziga xos xususiy jihatlar bo‘rtirilib, o‘zaro nizo solishga harakatlar bo‘layotgan bir sharoitda mintaqaviy, ya‘ni millatlararo hamjihatlikni ta‘minlash umumiy taraqqiyot uchun har qachongidan ham muhimdir. Chunki, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi etakchi davlat sifatida, aholi soni, shuningdek, geosiyosiy jihatdan mintaqaning

markazi, aytish mumkinki, yuragi (Heartland) bo'lganligi bois O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat mintaqa davlatlari hududidagi vaziyatni belgilovchi omildir.

Ayniqsa, jahonda obruyi va e'tibori oshib borayotgan, Evroosiyo kontinenti hududining beshdan uch qismi, ya'ni 30 mln. kv.km.dan ko'proq maydonda 1 mlrd 455 mln aholi (Yer shari aholisining yaqin to'rtidan bir qismi) istiqomat qiluvchi hududlarni birlashtiruvchi ahamiyati va ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni bajarishi jihatidan Evropa Ittifoqiga o'xshash tashkilot - Shanxay Hamkorlik Tashkilotining faoliyati mintaqada etnosiyosiy hamkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tashkilot o'zining ilk faoliyatidan Evroosiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashning yangi qirralarini ochib berib, faoliyat doirasidagi hududda istiqomat qiluvchi aholining soni jihatidan ham xalqaro miqyosdagi yirik siyosiy tashkilot sifatida BMT, Evropa Ittifoqi, Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ASEAN va boshqa xalqaro siyosiy birliklar tomonidan e'tirof etilib, Evroosiyo qit'asida ushbu nufuzli tashkilotning tuzilishi nafaqat region, balki butun dunyoda tinchlikni saqlash, etnosiyosiy jarayonlarning ijobiy rivojini ta'minlashda muhim o'rin tutishi ta'kidlanmoqda.

3. Chegara oldi hududlarida elatlarning aralash yashashlari elatlararo vaziyatning murakkab ekanligini belgilab beradi. Vaqti-vaqti bilan etnohududiy mazmundagi muammolarning paydo bo'lishi, asosan, tashqi kuchlar ta'sirida ro'y berib, ular asosan, mintaqaga ta'sir etuvchi ba'zi davlatlarning taktikasi va strategiyasi o'zgarishi davrida dolzarb masalaga aylanadi. Bu esa etno-siyosiy mavzuning hamisha dolzarb ekanligini namoyon etadi va albatta respublikalar o'rtasidagi munasobatlarda o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash uchun respublikalar quyidagi shartlarga rioya qilishlari shart:

- birinchidan, tashqi kuchlarga chegaraoldi hududlarda mavjud ko'p etnik omilni foydalanishka yo'l qo'ymaslik;

- ikkinchidan, jamiyatning polietnik jihatlaridan kelib chiqqan holda o'z milliy dasturlarini olib borishlari va uning tamoyillarini informatsion ta'minlashlari zarur;

- uchinchidan, millatchilikni targ'ib qiluvchi omillardan o'z fuqarolarini himoyalash;

- to'rtinchidan, etnik va hududiy barqarorlikka olib keladigan shart-shroit, ya'ni davlat chegaralarining delimitatsiya jaryonini yakunlash zarur;

- beshinchidan, etnikaro munosabatlarni saqlashga yordam beradigan, engillashtirilgan variantli chegaradan o'tish tartibini ta'minlash zarur;

- oltinchidan, transportlarning tranzit o'tish xavfsizligini ta'minlash.

4. Jamiyatda etnik ziddiyatlarni bartaraf etib, millatlararo munosabatlarning ijobiy rivojida barcha millat va elat vakillarining milliy urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlar asosida sayqallangan milliy-madaniy an'analari muhim ahamiyatga ega. Xullas, ziddiyatli mintaqada siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish birinchi navbatda ushbu barqarorlik va tinch-totuvlikdan manfaatdor bo'lgan qo'shni mamlakat zimmasiga tushadi. Tojikistondagi siyosiy vaziyat izdan chiqqan dastlabki kundan boshlab O'zbekiston tomonidan jahon hamjamiyati diqqat-e'tibori ushbu muammoga jalb etilib, xalqaro minbarlardan ushbu jarayonning oldi olinmas ekan ko'lami va oqibatlari dahshatli bo'lgan jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi g'oyasi ko'plab marotiba bong urildi. Natijada, o'tgan asrning to'qsoninchi yillari jahon miqyosida obruyi va e'tibori bugungidan bir-necha barobar ustun bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tojikiston voqealariga e'tibor qaratib, Tojikistondagi vaziyat nisbatan o'zaniga qayta boshladi.

Siyosiy vaziyat qalqib turgan ko'pmillatli jamiyatda milliy-etnik jarayonlarni barqarorlashtirishga hissa qo'shish ziyolilar zimmasidagi vazifalardan biri bo'lib, jamiyatning optimal rivoji bevosita ushbu jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Aks holda, siyosiy vaziyat taranglashgan jamiyatda milliy-etnik jarayonlar ham beqaror mohiyat kasb etib, jarayonni boshqarib turgan shaxslar faoliyatiga qarab pozitiv yoki negativ mohiyat kasb etishga moyil bo'ladi. Shunday

holatda milliy-etnik jarayonlarni to'g'ri yo'nalishga solib, faoliyatni mavjud inqirozni bartaraf etishga yo'naltirish ziyorilarimiz zimmasida bo'lishi lozim.

Mintaqada integratsiyalashuv jarayonlariga moyillik birinchidan geosiyosiy jihatdan hududlarning o'zaro chegaradoshligi, siyosiy-iqtisodiy muammolarning tutashligi hamda transport-kommunikatsiya masalalarida mintaq davlatlarining bir-biriga bog'liqlik jihatlarining ustunlik darajada namoyon bo'layotganligi bo'lsa, ikkinchidan xalqaro hamjamiyatga tahdid soluvchi terroristik harakatlar, narkotik oboroti va uyushgan jinoyatchilikka qarshi umumiy faoliyatni yo'lga qo'yishda muhimdir. Ijtimoiy-siyosiy sohada - huquqiy-demokratik jamiyatning rivojida barcha etnik guruhlarining erkinliklari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlarida bayon etilgan huquqiy manfaatlari, saylash, saylanish, mehnat qilish va hokazo kafolatlarining garovi sifatida faoliyat ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, barcha etnik guruh vakillari faoliyatini o'zaro totuvlik va hamjihatlikni ta'minlovchi milliy istiqlol jarayonining ijobiy rivojini ta'minlashga yo'naltirmoq lozim.

Zero, istiqlolga asoslangan demokratik jamiyatdagina etnik jarayonlar rivoji ijobiy tus oladi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy istiqlol g'oyasining tamoyillaridan biri sifatida millatlararo munosabatlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun etnik barqarorlik jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos ijobiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Rasmiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI - sessiyasida 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan.- T.: O'zbekiston, 2012. - 48 b.

Rahbariy adabiyotlar

2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: Nutqlar, maqolalar, suhbatlar. -T.: O'zbekiston, 1993.-261 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston,1997. - 326 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T. 1. - T.: O'zbekiston, 1996. - 364 b.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. - T.: O'zbekiston,1996. - 380 b.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston,1996. - 366 b.
7. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. -T.:O'zbekiston, 1996.-349 b.
8. . Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5. - T.:O'zbekiston, 1997. - 384 b.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T. 6. - T.:O'zbekiston, 1998. - 429 b.
10. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.:O'zbekiston, 1999. - 410 b.
11. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovardmaqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 525 b.
12. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun Har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.:O'zbekiston, 2001. – 439 b.
13. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.:O'zbekiston, 2002. – 430 b.

14. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T. 11. – T.: O‘zbekiston, 2003. – 319 b
15. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – T.: O‘zbekiston, 2004
16. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O‘zbekiston, 2005.
17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch - Toshkent.: Ma’naviyat 2008 y.
18. Karimov. I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2010 y.
19. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.: O‘zbekiston, 2011 y.
20. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. – T.: O‘zbekiston, 2012.
21. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. – T.: O‘zbekiston, 2013.
22. Karimov I.A. O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. – T.: O‘zbekiston, 2013.

Kitob va risolalar

23. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. -T.: O‘qituvchi, 1994. - 320 b.
24. Babaxodjaev M.A. Respublika Uzbekistan: Ocherki mejnatsionalnix imejkonfessionalnix otnosheniy, vneshneekonomicheskix svyazey. -Tashkent, 1996. - 104 s.
25. Brown M. The International dimension of Internal Conflict. Mir Press. Cambridge, Massachusetts, 1996.
26. Gadjiev K.S. Vvedenie v politicheskuyu nauku. -M., Logos, 1997. - 544 s.
27. Betty A. Reardon. La tolerance, porte ouverte sur la paix. UNESCO, 1997. - P. 127.

- 28.Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. T.: 1998. – B.10.
- 29.Munavvarov Z. Dunyoviy jamiyat va din, Islom: bag‘rikenglik, mutassiblik. To‘plam. Toshkent 1998. –B.19.
- 30.Gluxova A.V. Politicheskie konflikti: osnovaniya, tipologiya, dinamika. -M.: Izd-vo URSS, 2000. – 281 s.
- 31.Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent, 2000. - 80 b.
- 32.Jo‘raev N. Yangilinishlar konsepsiyasi, yaratilish evolyusiyasi va amaliyoti. - T.: Ma‘naviyat, 2002.
- 33.Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarining rivojlanishi . - Toshkent, 2002.
- 34.Nurullaeva Sh. Religiozniy ekstremizm i borba s nim. O‘zbekistonda politologiya.T. «SHARQ» 2002.
- 35.Turaev V.A. Etnopolitologiya. Uchebnoe posobie. –M.: Logos, 2004. –388 s.

M a q o l a l a r

- 36.Boydadaev M. Etnosiyosiy barqarorlik. //Jamiyat va boshqaruv. -2003. №2. B. 76-78.
- 37.Husniddinov Z. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik. //Jamiyat va boshqaruv. 2003. №1. B. 10-11.
- 38.Xolmo‘minov X. Milliy masalalardagi ziddiyatlarning migratsion jarayonlarga ta’siri. //Jamiyat va boshqaruv. 2004. №3. B. 41-43.
- 39.Noviy den. Regionalnaya gazeta sodeystvie Sentralno-Aziatskomu sotrudnichestvu i mejdunarodnomu fondu spaseniya Arala. 2004. №4.
- 40.Abdullaev U. O‘zbek-qirg‘iz etnomadaniy aloqalari. //Jamiyat va boshqaruv. - 2004. №4. B. 67-68.
- 41.Yunusova O. Markaziy Osiyo dinlararo muloqotning zamonaviy muammolari. // Ijtimoiy fikr: inson huquqlari. T.: 2002. № 4.
- 42.Ibragimov E. O‘zbekiston – diniy bag‘rikenglik o‘lkasi. //O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor. – T.:”O‘zbekiston”, 2007. – B.69
- 43.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning „Tarixiy xotira va inson omili — buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma

/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: „O'qituvchi" NMIU, 2012. — 144 b

44. Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir: Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T.: O'qituvchi, NMIU, 2014. -104 b.

Avtoreferatlar va dissertatsiyalar

- 45.Xo'jamurodov I.R. O'zbek xalqi milliy (etnik) o'z-o'zini anglashning shakllanishi muammolari va unga islomning ta'siri. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasi uchun diss-ya. –T., 1994.
- 46.Jo'raev N.Q. O'zbekistondagi yangilanishlar konsepsiyasining yaratilishi va amaliyotda qo'llanilishi: Siyosiy fanlar dok. ... diss-ya. T., 2001.
- 47.Po'latov A.H. Markaziy Osiyoda etnosotsial munosabatlar: nazariyasi,muammolari, echimlari: Falsafa fanlari dok. ... diss-ya. -T., 2003.
- 48.Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. - T.2005.